



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2025-yil 3-son

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025
ISSUE DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.5.3.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



Crossref
Content
Registration

MUASSIS:

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ushbu jurnal O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, Y. Yarmolik,
E. Mustafayev

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 26-sentabrda,
bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog‘i: 7,2

Adadi: 100. Buyurtma: № 173.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

N. Salayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR

S. Samadov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘i v.v.b.

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

D. Bazarova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

A. Otajonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

M. Rustambayev – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor

F. Raximov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

Q. Abdurasulova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

V. Davlyatov – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S. Niyozova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Sh. Xaydarov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

R. Kabulov – O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. Umirzakov – O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kriminologiya kafedrası boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A. Baratov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

I. Astanov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. Pulatov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori



**УЧРЕДИТЕЛЬ:
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Криминология и уголовное правосудие» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 18 марта 2021 года с удостоверением № 1160.

Журнал создан при сотрудничестве с Правоохранительной академией Республики Узбекистан.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев

Корректор:
М. Турсунов

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.

Тел.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Факс: (0371) 233-37-48.

Веб-сайт: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1386.

Издательская лицензия от
29.11.2023, № 174625.

Журнал передан в типографию
26.09.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 7,2. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 173.

Лицензия типографии от
№ 174626, 29.11.2023.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Н. Салаев – доктор юридических наук, профессор кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Самадов – врио начальника Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Д. Базарова – доктор юридических наук, профессор, заведующая кафедрой уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

А. Отажонов – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

М. Рустамбаев – доктор юридических наук, профессор, начальник Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Ф. Рахимов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

К. Абдурасулова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

В. Давлятов – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

С. Ниёзова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

Ш. Хайдаров – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

Р. Кабулов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан

Б. Умирзаков – доктор философии (PhD) по юридическим наукам, доцент, начальник кафедры криминологии Академии МВД Республики Узбекистан

А. Баратов – кандидат юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета

И. Астанов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Б. Пулатов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

**FOUNDER:
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"The scientific-practical journal "Criminology and Criminal Justice" was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on March 18, 2021, with certificate No. 1160.

This journal was founded in cooperation with the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
Y. Makhmudov, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, Y. Yarmolik, E. Mustafae

Proofreader:
M. Tursunov

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.

Phone: (0371) 233-66-36,
233-41-09.

Fax: (0371) 233-37-48.

Website: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Subscription index: 1386.

Publishing license
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.09.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 7,2.

Units: 100. Order: № 173.

Printing house license
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

N. Salayev – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

EDITOR-IN-CHIEF

S. Samadov – Acting Head of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF

D. Bazarova – Head of the Department of Criminal and Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law , Professor

EXECUTIVE EDITOR

A. Otajonov – Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

M. Rustambayev – Head of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

F. Rakhimov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

Q. Abdurasulova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

V. Davlyatov – Doctor of Philosophy in Law (PhD), Associate Professor

S. Niyozova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Sh. Khaydarov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

R. Kabulov – Professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

B. Umirzakov – Head of the Department of Criminology of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law (PhD), Associate professor

A. Baratov – Associate professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

I. Astanov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

B. Pulatov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Ochilov Samariddin Kamoliddinovich

JAZONI O'TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISH
INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 8

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Paraxatova Shaxnoza Yernazarovna

EKSPERT TEKSHIRUVI UCHUN NAMUNALAR OLIISHDA SHAXSNING
HUQUQLARI VA QONUNY MANFAATLARINI TA'MINLASH26

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

Mirzayeva Mohina Srojiddinovna

TRANSPORT INFRATUZILMASI LOYIHALARIDA KORRUPSIYAGA
QARSHI SAMARALI CHORALARNING XALQARO TAJRIBASI:
TAHLIL VA TAVSIYALAR39

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIIYA FAOLİYATI

Ismoilov Zafarbek Kamol o'g'li

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI, JINOYATCHILIKNING OLDINI
OLISH VA UNGA QARSHI SAMARALI KURASHISH USULLARI51

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

Очилов Самариддин Камолиддинович

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНСТИТУТА УСЛОВНО-ДОСРОЧНОГО
ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ ОТБЫВАНИЯ НАКАЗАНИЯ 8

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Парахатова Шахноза Ерназаровна

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ И ЗАКОННЫХ ИНТЕРЕСОВ ЛИЧНОСТИ
ПРИ ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ36

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

Мирзаева Мохина Срожиддиновна

МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА ЭФФЕКТИВНЫХ АНТИКОРРУПЦИОННЫХ
МЕР В ПРОЕКТАХ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ:
АНАЛИЗ И РЕКОМЕНДАЦИИ39

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Исмоилов Зафарбек Камол угли

ПРОФИЛАКТИКА ПРАВОНАРУШЕНИЙ, ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ
ПРЕСТУПНОСТИ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ БОРЬБЫ С НЕЙ51



CONTENTS

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

Ochilov Samariddin Kamoliddinovich

THE ISSUES RELATED TO THE IMPROVEMENT OF THE INSTITUTION
OF CONDITIONAL EARLY RELEASE FROM IMPRISONMENT 8

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

Parakhatova Shakhnoza Yernazarovna

ENSURING THE RIGHTS AND LEGAL INTERESTS OF INDIVIDUALS WHEN
OBTAINING SAMPLES FOR EXPERT RESEARCH26

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

Mirzaeva Mohina Srojiddinovna

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN EFFECTIVE ANTI-CORRUPTION
MEASURES IN TRANSPORT INFRASTRUCTURE PROJECTS:
ANALYSIS AND RECOMMENDATIONS39

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

Ismoilov Zafarbek Kamol ugli

PPREVENTION OF OFFENSES, CRIME PREVENTION, AND EFFECTIVE
METHODS OF COMBATING THEM51

Kelib tushgan / Получено / Received: 18.08.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.3./DZHI4926
UDC: 348.846(045)(575.1)

JAZONI O'TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISH INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ochilov Samariddin Kamoliddinovich,
O'zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Bakalavriat fakulteti katta prokurori
ORCID: 0009-0003-2221-2602
e-mail: samariddinochilov24@gmail.com

Annotatsiya. Jamiyatda liberal munosabatlar keng qamrovli ahamiyat kasb etishi inson huquq va erkinliklari hamda jinoiy odil sudlov tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, jazoni o'tashga hukm qilingan shaxsning tuzalish yo'liga o'tganligini maqsadli baholash, shaxsga nisbatan qo'llanilgan jazoning sifati va samaradorligini oshirishni taqozo qilmoqda. Shu jumladan, mahkumni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qo'llashga oid qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish masalalarini tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Garchi, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish jinoyat huquqining rag'batlantiruvchi normasi hisoblansa-da, ushbu institutni qo'llash kutilgan samara berishi bahsli muhokamalarni keltirib chiqaradi. Maqolada muallif tomonidan tadqiqotchi olimlarning jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid turli qarashlari va ilmiy-nazariy ta'riflar berilgan bo'lib, ushbu tadqiqot natijalari bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil qilingan, amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga muvofiqligi o'rganilgan. Shuningdek, bugungi kun jinoyat qonunchiligida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti qo'llashga oid ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan. Bu borada qonunchilik va sud amaliyotini o'rganish natijasiga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va huquqiy yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: jazo, sud, hukm, jinoyat, jazoni ijro etish, jazodan ozod qilish, mahkum, adolat, insonparvarlik, shartli ozod qilish, tuzalish, xulq-atvor

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНСТИТУТА УСЛОВНО-ДОСРОЧНОГО ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ ОТБЫВАНИЯ НАКАЗАНИЯ

Очилов Самариддин Камолитдинович,
старший прокурор факультета бакалавриата
Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Аннотация. *Расширение либеральных отношений в обществе обуславливает необходимость дальнейшего совершенствования системы уголовного правосудия, обеспечения прав и свобод человека. Особое значение приобретает целенаправленная оценка исправления лиц, осуждённых к отбыванию наказания, а также повышение качества и эффективности применяемых к ним мер наказания. В этом контексте исследование вопросов совершенствования законодательства и практики применения института условно-досрочного освобождения от отбывания наказания является одной из актуальных задач современности. Несмотря на то, что условно-досрочное освобождение рассматривается как стимулирующая норма уголовного права, практика его применения и достигаемые результаты нередко становятся предметом дискуссий. В статье автором анализируются различные научные взгляды и теоретические определения института условно-досрочного освобождения, проводится их оценка с позиции современных реалий, рассматривается соответствие действующему законодательству и правоприменительной практике. Кроме того, исследуются научно-теоретические подходы в уголовном праве к применению данного института, а также на основе анализа законодательства и судебной практики выдвигаются предложения, направленные на разработку научно-теоретических и правовых решений по совершенствованию института условно-досрочного освобождения от наказания.*

Ключевые слова: *наказание, суд, приговор, преступление, исполнение наказания, освобождение от наказания, осуждённый, справедливость, гуманизм, условно-досрочное освобождение, исправление, поведение*

THE ISSUES RELATED TO THE IMPROVEMENT OF THE INSTITUTION OF CONDITIONAL EARLY RELEASE FROM IMPRISONMENT

Ochilov Samariddin Kamoliddinovich,
Senior Prosecutor of the Bachelor's Faculty,
The Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *The comprehensive significance of liberal relations in society requires further improvement of human rights and freedoms, as well as the criminal justice system. In particular, a targeted assessment of the transition of a person sentenced to serving a sentence to the path of correction requires an increase in the quality and*

effectiveness of the punishment applied to the person. In particular, the study of issues of further improvement of legislation and law enforcement practice on the application of the institution of conditional early release of convicts from serving a sentence is one of the most pressing issues today. Although conditional early release from serving a sentence is considered an incentive norm of criminal law, the application of this institution leads to controversial discussions about its expected effectiveness. In the article, the author presents various views and scientific-theoretical definitions of research scientists on parole, analyzes the results of this study from the point of view of today, and examines their compliance with current legislation and law enforcement practice. He also analyzed the scientific and theoretical views on the application of the institution of conditional early release from serving a sentence in modern criminal legislation. In this regard, based on the results of studying legislation and judicial practice, he put forward proposals aimed at developing scientific, theoretical, and legal solutions for improving the institution of parole.

Keywords: *punishment, court, sentence, crime, execution of sentence, release from punishment, convict, justice, humanity, conditional release, rehabilitation, behavior*

Kirish

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash, shuningdek, odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sud-huquq islohotlarini takomillashtirishga oid qarashlarida: "Insonni faqat jazolash bilan, faqat repressiv usullar bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Buni hayotning o'zi ko'p bor isbotlagan. Insonni tarbiyalash uchun butun jamiyat harakat qilishi, avvalambor, jinoiy holatlarni tug'diradigan sabab va omillarni hayotimizdan bartaraf etishimiz kerak", – deb ta'kidlangan [1, 107-b.]. Ta'kidlash joizki, sud hokimiyati fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashi uchun nafaqat sud tizimining takomillashtirilishi, balki sudlar tomonidan qo'llaniladigan jazo tizimini ham qayta isloh etilishi, jazoda haqiqiy insonparvarlik g'oyalarining aks etishi ta'minlashini kerak.

Jazodan ko'zlangan pirovard maqsad – jazo trayektoriyasi mahkumni axloqan tuzatish va uni jamiyatga qaytarishga qaratilgan ekan mahkumning jazodan ozod bo'lish huquqini samarali ta'minlash mexanizmini takomillashtirish huquqni qo'llash amaliyotidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirish sohaga oid huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Shunga ko'ra, ushbu maqolada jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qo'llash borasida quyidagi nazariy muammolar yechimini yoritish nazarda tutilgan:

birinchidan, jazoni o'tashdan muddatidan shartli ozod qilish instituti amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan jazodan ozod qilish instituti hisoblansa-da, bu borada olib

borilgan tadqiqotlar, ilmiy-nazariy qarashlar lozim darajada o'rganilmagan, ularning dolzarbligi va samaradorligi tahlil qilinmagan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga ilmiy-nazariy ta'rif berilmagan;

ikkinchidan, jinoyat qonunchiligida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash mumkin bo'lgan jazo turlari tizimli va mantiqiy ravishda yengilidan og'iriga qarab bayon etilmagan;

uchinchidan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid moddiy va protsessual qonunchilik o'rtasidagi muvofiqlik o'rganilmagan, mavjud farqli jihatlarni bartaraf etishning ilmiy-nazariy yechimlari ishlab chiqilmagan.

Asosiy qism

Mahkumda jazoni ijro etish davrida qo'llanilgan ta'sir choralarining mavjudligi, o'z-o'zidan, uning tayinlangan jazoni o'tashni davom ettirishi zarurligidan dalolat bermaydi. Mazkur masalani hal etishda har doim, nafaqat, bevosita iltimosnoma kiritilishi arafasida, balki jazoni o'tashning butun davrida mahkum tomonidan yo'l qo'yilgan har bir tartibbuzarlikning muayyan holatlari, og'irligi va xususiyati, ta'sir choralari olib tashlanishi yoki tugallanishiga oid ma'lumotlar, oxirgi ta'sir chorasi qo'llanilganidan so'ng o'tgan vaqt, mahkumning keyingi xulq-atvori va uni tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar inobatga olinishi lozim.

Jinoiy-huquqiy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar doirasida jinoiy jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish, shu jumladan, jazodan ozod qilish institutining ayrim turlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Jinoiy jazolarni insonparvarlashtirish o'z navbatida shaxsning ijtimoiy og'ir ahvolga tushib qolishining oldini olish, tayinlangan jinoiy jazodan ijobiy xulosa chiqarish, jamiyat tartib-taomillarini qabul qila olish, eng muhimi tayinlangan jinoiy jazoning insoniyligi va sudning chinakam odilligini his qila olishini nazarda tutadi.

Umuman olganda, jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish zaruriyati birinchidan, jazoni tayinlashdan ko'zlangan huquqiy maqsadga erishish bo'lsa; ikkinchidan, insonparvarlik prinsipi ro'yobga chiqarilishi ta'minlash, shuningdek, yana bir muhim jihat birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsni qayta jinoyat sodir etishiga yo'l qo'ymaslikdir. Jinoiy jazodan ozod qilish turlarini tadqiq etish bu borada mavjud jinoyat qonunchiligini takomillashtirishni taqozo etadi. Jazo tizimini takomillashtirish doirasida jinoyat qonunchiligini tadqiq etish jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsni jinoiy jazodan ozod qilish institutining obyektivligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 26-moddasida insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 7-moddasida jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamasligi, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat

sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerakligi nazarda tutilgan. Mazkur qonun hujjatlarida bayon etilgan normalar o'zida jinoyat sodir etgan shaxs bilan unga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazo o'rtasida o'zaro mutanosiblikning mazmunini, jinoiy jazodan ko'zlangan maqsadning asl mohiyatini ifodalaydi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qo'llash borasida tadqiqotchi olimlar tomonidan bir qator metodlarni qo'llash asosida ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilgan. Xususan tadqiqotlarda tahlil va sintez, mantiqiy, tarixiy-qiyosiy, komporativ, statistik metodlar ustuvorligi namoyon bo'ladi.

Xususan, mantiqiy metodlar asosida jazo jinoyatchini zararsiz holga keltirganidek boshqacha tarzda jarohat yetkazishga qodir emas. Jazo jinoyatning izolyatsiyasi sifatida uni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan muvozanat buzilishi bezovtalikni yanada tarqalishiga olib kelishi nazarda tutilgan [2, 322-b.]. Shuningdek, jinoyat uchun jazo tayinlash borasida olib borilgan tadqiqot ishlarida jazo tayinlash jinoyat qonun hujjatlariga muvofiq Jinoyat kodeksining prinsiplariga asoslangan holda sud tomonidan jinoyat sodir etganlikda aybdor bo'lgan shaxsga tayinlanadigan jazo turi va miqdorining belgilanishi sifatida ta'rif berilgan [3, 16-b.].

Jazolash nazariyasida jazo sodir etilgan jinoyatnigina inobatga olib tayinlanishi lozimligi ta'kidlangan, jazoning og'irligi sodir etilgan jinoyatning xavfliligiga teng bo'lishi belgilangan va mahkumning kelajakdagi xulq-atvoriga aloqador emas [4, 20-b.]. Mazkur nazariy xulosadan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, tayinlangan jazo hukm o'qiladigan vaqtda jinoyatning xavfliligiga mos bo'lsa-da, keyinchalik jinoiy oqibatlar bartaraf etilishi jinoyatning xavfliligini kamaytiradi. Shu sababli, jazoni o'tash muddati o'tishi uni yengillashtirish yoki tugatish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tahlil va sintez asosidagi metodlar doirasida asosiy talab qilinadigan narsa bu – jazo maqbul deb ko'rsatilishi kerak, ya'ni unda adolat va insonparvarlikni cheklovchi tamoyillar mavjud. Jazo amaliyoti nohaqmi yoki g'ayriinsoniymi? Kimga shunday deyish kerak? Har qanday jamiyatning shu vaqtgacha majburlanmaganligini anglab yetgan shaxsga aytiladi [2, 387-b.]. Faqat jazo qo'llash muhim ahamiyat kasb etmasdan, sud mahkumlarning umumiy sonidan ularni zararlilikni anglaganlarni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatishga e'tibor qaratadi [5, 3-b.].

Xalqaro jinoiy siyosat jazoni insonparvarlashtirishga qaratilgan, shu jumladan, huquqni qo'llashni takomillashtirish orqali mahkumlarni shartli ravishda ozod qilish isloh qilingan. Yevropa Ittifoqining Vazirlar qo'mitasi tavsiyalarida muddatidan ilgari shartli ozod qilishga shunday shunday ta'rif beriladi: "Muddatidan ilgari shartli ozod qilish mahkumlarni takroran jinoyat sodir etishlarini oldini olishda juda samarali ta'sir va usullardan biri hisoblanib, rejali va tizimli nazorat qilish orqali mahkumni jamiyatga qaytaradi va ijtimoiylashtiradi. Ozodlikdan mahrum qilish joylarini saqlash uchun qilinadigan moddiy xarajatlar jamiyat zimmasiga og'ir yuk bo'ladi, jazoni o'tashni davom ettirish mahkumni axloqan tuzalmasligiga aksariyat hollarda salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Imkon qadar sud tomonidan tayinlangan jazoni qisqartib borish maqsadga muvofiq. Jazodan ko'zlangan maqsadga erishishning muhim vositasi

mahkum jazo muddatini to'liq o'taguncha uni shartli ravishda jazodan ozod qilib borishdir" [6].

Sud hukmi bilan tayinlangan jazo muddatidan oldinroq ozod bo'lish mumkinligini, mahkumni muddatidan oldin normal ijtimoiy hayotga va oilaga qaytish istagi jazoning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi deyishga asos bo'ladi. Bundan tashqari, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning zarurati jazodan ko'zlangan asosiy maqsadga nisbatan tezroq va sifatliroq erishilishini ta'minlaydi [7, 102-b.]. Ayrim tadqiqotchilar mahkum har qanday ma'muriy jazoni o'tashning butun muddati davomida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik faktini jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni bekor qilish asoslari sifatida baholanishi lozimligini ta'kidlaydilar [8, 8-b.].

Tadqiqotchi olimlarning ilmiy ishlaridagi komparativ yondashuvlarga ko'ra, [9, 11-b.] jinoiy javobgarlik, jazo, jazodan ozod qilish va jazoni o'tashdan ozod qilish, shuningdek, ushbu huquqiy toifalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar hamda ularning nisbati tahlil qilingan. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda jazo maqsadi qayta ko'rib chiqiladi, mahkumning holati amaldagi jazoga muvofiqligi o'rganiladi, mahkumning real holati bilan jazo maqsadi va unga erishish darajasi tahlil qilinadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinadigan mahkumning o'rganilgan xususiyatlari uning xatti-harakatlar to'g'risidagi taqdim etiladigan materiallarda mahkumning "mehnatga aloqadorligi va vijdonan munosabatda bo'lishi", "intizomi ta'minot va mehnat rejimini buzishga yo'l qo'ymasligi", "ma'rifiy tadbirlarda muntazam qatnashishga xarakteri va xulq-atvori mos keladi", "qarindoshlari bilan aloqada bo'lib turadi", "sodir etgan jinoyatini tan olgan va pushaymonlik bildirgan" va hokazo belgilari bilan tavsiflanadi [5, 21-b.].

Tarixiy metodlar asosida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurashning ko'p yillik tajribasi va amaldagi Jinoyat kodeksining mazmunidan jinoyat siyosatida ikkita tendensiya amal qilayotganligini ko'ramiz.

Bular birinchidan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga, jinoyatchilikni kasb qilib olganlarga, uyushgan jinoyatchilik, ularning rahbarlariga, faol ishtirokchilariga, o'ta xavfli retsidivistlarga qarshi jinoyat qonuni normalaridan foydalangan holda murosasiz kurash olib borish.

Ikkinchi tendensiyada jinoyat huquqining insonparvarlik prinsiplari mujassamlangan. Bu – ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan javobgarlik yoki jazodan ozod qilish yoxud ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni tayinlashdan iborat. Ana shu ikkita tendensiyaning uzviy ravishda bog'liq holda amalga oshirilgandagina jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borish ta'minlanishi mumkin [9, 7-b.].

Bugungi kunda sud-huquq sohasida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar mazmun-mohiyatiga ko'ra jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini ham takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Tabiiyki, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini takomillashtirish sohaga oid ilmiy-nazariy qarashlar, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini tadqiq etishni taqozo qiladi.

Jazoning maqsadi ham mahkumni tuzatishdir. Qonun chiqaruvchi oshkor qilmaydigan “tuzatish” tushunchasi noaniqlikni keltirib chiqaradi, bu, shubhasiz, jazoni o’tashdan shartli ozod qilish amaliyotida huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarining faoliyatini murakkablashtiradi [5, 21-b.]. Ma’lumki, jazo jinoyatchilikka qarshi kurash borasida yagona chora bo’lmasdan, u jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning shakllaridan biridir [9, 553-b.]. Mazkur nazariy fikrni atroflicha izohlaydigan bo’lsak, jazo javobgarlikka tortishning boshqa choralariga qaraganda nisbatan qat’iyoq turi sifatida namoyon bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to’sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo’llanilishi, 54-moddasida sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og’irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishi nazarda tutilgan.

Sudlar tomonidan jazoni o’tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish dinamikasi tahliliga ko’ra, 2020-yil 21970 nafar, 2021-yil 21780 nafar, 2022-yil 26753 nafar, 2023-yil 33612 nafar, 2024-yil 33151 nafar, 2025-yil birinchi yarmida 17144 nafar shaxs jazoni o’tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan.

Jazoni o’tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish garchi turli shart va mezonlar asosida mahkumni jazodan ozod qilishni nazarda tutsa-da, aslida mahkum tuzalish yo’liga o’tganligi, axloqan tuzalganligi, pirovard natijada mahkum amalda o’tayotgan jazosini davom ettirish maqsadga muvofiq emasligini ifodalaydi. Shu o’rinda qayd etish joizki, aslida mahkumni amalda tuzalgan xulq-atvori bilan amaldagi jazosini o’tashda davom etishi holati garchi qonuniy bo’lsa-da, faktik jihatdan adolatga xos bo’lmagan alomatlarini namoyon qiladi. Tadqiqot ishlarida mahkum jazoning to’rtidan bir qismini o’tagach, jazodan ozod qilingandan so’ng boshqa huquqbuzarlik sodir etmasligi va mahkumga qo’yilgan talablarni buzmasligi belgilanishi lozim [10, 10-b.].

Amaldagi qonunchilikda jazoni o’tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mezonlari noaniq, ushbu mezonlar aniqlanmagan va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun qiyinchilik tug’dirishi mumkin. Bugungi kunda mahkumlarni shartli ravishda ozod qilish uchun qaror qabul qilishda aniq mezonlarga amal qilish kerak [5, 21-b.].

Umuman olganda ijtimoiy xavfli xususiyatini yo’qotgan mahkumning jazoni o’tashda davom etishini ijobiy xulq-atvori uchun jazodan ozod bo’lish huquqining buzilishi sifatida e’tirof etish mumkin. Jinoiy xulq-atvori tuzalgan mahkumning jazoni o’tashdan muddatidan ilgari jazodan ozod qilinish huquqi mavjud. Jazoni o’tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish – tarmoqlararo institut, boshqaruv asoslari, jazodan ozod qilishning shartlari va tartibi hisoblanib, jazodan ozod qilishning shartlariga rioya qilmagan taqdirda jazoning o’talmagan qismini ijro etish tahdidi ostida jinoiy jazoning maqsadlarini shartli amalga oshirishdir [5, 8-b.].

Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etishni maqsad qilgan ekanmiz shaxsning munosib xulq-atvori uchun ozod hamda jinoiy ta’qibdan



holi yashash huquqini ro'yobga chiqarishni bugungi kundagi islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti o'ziga xos ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, ushbu institut mahkumlarni qayta tarbiyalash, ular tomonidan takroran jinoyat sodir etilishining oldini olish hamda insonparvarlik jinoyat-huquqiy prinsipini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi nazarda tutilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash, shuningdek, odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sud hokimiyati fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashi uchun nafaqat sud tizimining takomillashtirilishi, balki sudlar tomonidan qo'llaniladigan jazo tizimi ham qayta isloh etilishini, jazoda haqiqiy insonparvarlik g'oyalari aks etishi ta'minlashini taqozo etadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga oid bir qator nazariy qarashlar ilgari surilgan bo'lib, ushbu nazariy qarashlar o'z davridagi sud-huquq islohotlari mazmunini ifodalaydi. Xususan, tadqiqotchi olimlar ushbu institut mahkumlarni tezroq halol turmush tarziga o'tib olishi uchun rag'batlantiruvchi institut bo'lib, jazoni o'tash vaqtida jazoni o'tash tartib-qoida va talablarini bajarish, ish va o'qishga halol munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar [9, 597-b.].

Mazkur nazariy qarashda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun mahkum jazoni o'tash davomida uning xulq-atvoridagi ijobiy o'zgarishlar, ya'ni tuzalish yo'liga o'tganligi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga tayinlangan jazoning muayyan muddatini o'tagan bo'lish sharti ifodalanmaydi.

Boshqa manbalarda [11, 66-b.] ushbu huquqiy institutni qo'llashning dastlabki sharti hukm qilingan mahkumning tuzalganligi to'g'risidagi sud tomonidan o'rnatilgan holatlarning mavjudligi va mahkum tomonidan jazoning ma'lum qismi o'talganligi hisoblanadi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, maqbul huquqiy xatti-harakatni rag'batlantirishning samarali vositalaridan hisoblanadi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish borasidagi ushbu nazariyada jinoyat qonunchiligidagi normalar mazmunini to'la to'kis ochib bergan, ushbu institutni qo'llash mezonlarini kompleks jamlagan.

Muddatning o'talmagan qismi bu yerda shaxs o'z xulq-atvori bilan o'zining o'zgarganligini isbotlashi va davlat tomonidan bildirgan ishonchni oqlashi kerak bo'lgan sinov muddati hisobida ko'riladi [12, 226-b.]. Jazoni o'tashdan ozod qilishga oid ushbu institutga berilgan sharh so'ngi yillarda jinoiy jazolarni liberallashtirishga oid islohotlar mazmunini ifodalaydi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti dastlab ozodlikdan mahrum qilish jazosidan ozod qilish sifatida ko'rilgan. Bunday holatda mahkumni jazoni o'tashdan shartli ozod qilishda uning

jazoni o'tashdan ozod qilish haqidagi murojaat qilishi asosiy shart sifatida qabul qilingan [13, 7-b.].

Mazkur nazariy qarash mahkumni axloqan tuzalish yo'liga o'tishini asoslovchi omil bo'lib hisoblangan. Mahkum o'zini axloqan tuzalgan, tuzalish yo'liga o'tgan deb hisoblaydigan bo'lsa, ya'ni u jazodan ozod bo'lishga tayyor bo'lganligini his qilganda jazoni o'tashdan ozod qilishni so'rab murojaat qilishi mumkinligi ta'kidlangan. Biroq masalaning boshqa tomoni shundaki, bunday qarashlar jazoni o'tashga toqat qila olmagan holatda ham jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risida murojaat qilish harakatini istisno qilmaydi.

Mahkumni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun belgilangan mezonlarga nisbatan o'ta repressivlik yoki o'ta liberallikdan yiroq bo'lish taqozo qilinadi. Mahkumning axloqan tuzalishida uni ijtimoiy moslashuvi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy moslashuv huquqiy tarbiyani ham shakllantirishni nazarda tutadi. Ya'ni mahkum unga nisbatan tayinlangan jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda, yana qayta jinoyat sodir etadigan bo'lsa, bunday xatti-harakatining huquqiy oqibatlarini tushunib yetishi lozim bo'ladi.

Kuzatish metodi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar huquqbuzarligi profilaktikasi ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularda shakllangan ijobiy xulq-atvorni saqlab qolish yoki rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi jinoiy jazo qo'llashdan ko'zlangan maqsadga erishilmaganligini ko'rsatuvchi indikator hisoblanadi. Albatta, buning oldini olish uchun jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda mahkumda ijtimoiy foydali erkin hayot shakllanganligini maksimal darajada aniqlash mexanizmini shakllantirish lozim bo'ladi.

Jinoyatchini jazodan ozod qilish mahkumning harakatlari to'g'ri malakalanganligiga, mahkumga tayinlangan jazoning adolatli bo'lishiga bog'liq emas. Mahkumni shartli ravishda ozod qilish to'g'risida qaror chiqarilishi dastlabki hukmni o'zgartirmaydi yoki bekor qilmaydi [14, 199-b.]. Mahkum jazoni o'tashdan muddatidan ilari shartli ozod qilinsa-da, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etadigan bo'lsa, shaxsga nisbatan sud ushbu bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi. Bunda dastlabki hukmdagi huquqiy oqibatlar harakatga keladi.

Ayollar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashga oid bo'lgan tadqiqot ishlarida bayon qilinishicha, jazodan ozod qilingan shaxs turmushda ijtimoiy foydali aloqalarni yo'lga qo'ygan, mavjud talablardan og'maganida ijtimoiy hayotga tez va muvaffaqiyatli moslashadi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxs jinoyatchilik muhiti va xulq-atvori ijtimoiy xavfli deb tavsiflanganlar bilan aloqasini uzadi, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilmaydi va huquqbuzarliklar sodir etmaydi [15, 28-b.]. Albatta, ijtimoiy foydali aloqalarni yo'lga qo'ygan mavjud talablar o'z navbatida mahkum (jazodan ozod qilingan shaxs)ning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda belgilanishi va uning xulq-atvoriga munosib bo'lishini taqozo etadi.

Tahlil metodi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni qo'llash mexanizmi va huquqiy mezonlarida bir muncha o'xshash jihatlar mavjudligini ko'rsatsa-da, biroq ushbu ikki institutni qo'llash

natijasida yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarga ko'ra bir qator farqli jihatlarni namoyon qiladi.

Penitensiar tizimning profilaktikasi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, mukammal penitensiar mexanizm ostida jazoni o'tagan mahkum jazodan ozod qilinadigan bo'lsa, keyinchalik uning ijtimoiy moslashuvi samarali natija beradi. Penitensiar tizimga oid tadqiqot ishlarida [16, 24-b.] olimlar tomonidan: "Penitensiar tizim – jinoiy jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi davlat organlari va muassasalarining mahkumlarning axloqan tuzalishi va qayta ijtimoiylashuviga qaratilgan tarbiyaviy-axloqiy, pedagogik-psixologik, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olgan tizim", – deb ilmiy-nazariy ta'rif berilgan.

Penitensiar tizimning samarali amal qilishi mahkumlarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki ularga nisbatan tayinlangan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llashni kengaytirish imkonini beradi. Eng muhimi jazodan ozod qilishning ushbu turlarini qo'llanilishidan ko'zlangan pirovard natija, ya'ni nisbatan qisqa muddatlarda mahkumlarni axloqan tuzatishga erishish va ular tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilishi xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga jinoyat qonunchiligida huquqiy ta'rif berilib, ushbu institutni qo'llash shartlari bayon etilgan. Biroq jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga bugungi kunga qadar huquqiy ta'rif mavjud emas.

Qiyoslash metodi orqali jazoni o'tashdan ozod qilish bilan javobgarlikdan ozod qilish institutlari borasida olib borilgan tadqiqotlar tahlili tadqiqot ishlarida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish – qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganida jinoyat sodir etgan shaxsni davlat tomonidan jinoiy javobgarlik tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlardan ozod qilinishi [17, 28-b.] deb ta'rif berilganligini, jazodan ozod qilish kompleks jinoyat-huquqiy institut bo'lib, u nafaqat jinoyat-huquqiy, balki jinoyat-protsessual hamda jinoyat-ijroiya huquqlariga oid normalarni o'z ichiga qamrab olganligini namoyon qiladi. Qayd etilganidek, ushbu institut mahkumning ahvolini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, uning qonunga itoatkor xulq-atvori hosilasidir [18, 107-b.] deb ta'riflangan.

Jazo jinoyat uchun tayinlansa-da, biroq jazoni mahkum o'taydi. Jazoning maqsadi jinoyatni zararsizlantirish emas, balki mahkumni zararsizlantirish, ya'ni uning xulq-atvorini tuzatishga qaratilgan o'zgartirishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Yoki jazoning maqsadi mahkum tomonidan boshqa (yana yoki takroran) jinoyat sodir etilishining oldini olishni nazarda tutsa, jazoni o'tash davomida mahkumdagi takror jinoyat sodir etish alomati ko'rinmasa, uning jazosi yengilrog'i bilan almashtirilishi, keyinchalik jazodan batamom ozod etilishi lozim.

Shaxs sodir etgan jinoyati uchun javob berishi, jinoiy qilmish uchun javobgarlik muqarrar bo'lishi taqozo etiladi. Shu bilan birga jazoni o'tashdan ozod qilish huquqiy mazmunida "shartli ozod qilish" mezonini mavjud bo'lib, o'zida jinoiy ta'qibni aks ettiradi. Jazo shaxsni qayta tarbiyalab, uning xulqini tuzatish va ijobiy xulq-atvor bilan jamiyatga qaytarishga xizmat qilmaydigan bo'lsa, unda tayinlangan jazo ko'zlangan

maqsadga nomuvofiq tayinlangan bo'ladi. Aksincha, shaxs qilmishining mohiyatini tushunib yetgan, ijtimoiy xavfli xususiyatini yo'qotgan, aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, qilmishining oqibatlarini tushunib yetgan, tegishli xulosa chiqargan bo'lsa-da, unga nisbatan jazo tayinlanishi jamiyatdagi normal xulq-atvorli shaxsni yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Har qanday jamiyatda turli toifadagi shaxslar hayot faoliyati davomida intellektual holati yoki yashash muhiti va sharoiti ta'sirida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadi, mavjud tartibotni buzadi, jinoyat deb atalmish nojo'ya xatti-harakatni sodir etadi. Bunday holatda qonunbuzar shaxsni tarbiyalash, unda munosib xulq-atvorni qayta tiklash va nuqsonli xulqini tuzatish farovonlik va barqarorlikni maqsad qilgan jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish, probatsiya bo'linmalari nazorati ostidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish bo'yicha yangi tizim yaratildi. Natijada, nazorat ostidagilar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishi kamayishiga erishildi. Jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish, ularni jamiyatdan ajratmagan holda jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda qayta tarbiyalash probatsiya nazoratining mohiyatini ifodalaydi.

Jazodan ozod qilishning shartli hukm qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilroq'i bilan almashtirish turlarida mahkumning ijobiy xulq-atvorini rag'batlantirish orqali uni bosqichma-bosqich jazodan ozod qilish nazarda tutiladi. Biroq jazodan ozod qilishning bunday turlarini qo'llashda jazo tayinlanishi yoki o'talishi muqarrar bo'lgan holda jazodan ozod qilib yoki yengilroq jazo tayinlash orqali mahkumning xulqi ustidan nazorat olib boriladi.

Jinoyat sodir etgan shaxsga bo'lgan huquqiy munosabatning xususiyati unga nisbatan tayinlangan jinoiy jazoning turi va og'irlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Shaxs sodir etgan jinoyati uchun unga nisbatan tayinlangan jazo nafaqat uning qilmishiga, balki uning ijtimoiy-psixologik holatiga ham mos bo'lishi, albatta, ushbu jihatlar probatsiya nazorati davomida o'rganib borilishi lozim.

Sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar statistikasida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha ko'rilgan ishlar 2023-yilda 31148 tani, 2024-yilda 31212 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning birinchi yarmida 14654 tani tashkil etgan, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha ko'rilgan ishlar 2023-yilda 18227 tani, 2024-yilda 19688 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning birinchi yarmida 10185 tani tashkil etgan.

Jazo shaxsning jinoiy xulq-atvori hosilasiga nisbatan davlatning sud orqali hukm qilish yo'li bilan bildiradigan munosabati hisoblanadi. Shaxs sodir etgan jinoiy qilmishi uchun hukm qilingan jazoni o'tash orqali javob beradi. O'zbekiston jinoyat qonunchiligi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazo qo'llashdan maqsad uni axloqan tuzatishga qaratilganligini ifodalaydi. Jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazoning muddati va davomiyligi uning jazo ostidagi xulq-atvori bilan parallel bo'lishini taqozo qiladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish jazoni o'tash muddati tugamasdan mahkum xulq-atvorida kuzatilgan, aniqlangan va e'tirof etilgan ijobiy xulq atvorni rag'batlantirishni nazarda tutadi. Jinoiy xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlar hosil

bo'lib, ijtimoiy xavflilik darajasi kamaygan hamda jamiyat uchun xavf tug'diradigan xulq-atvordan holi bo'lgan shaxsning jazoni o'tashda davom etishi maqsadga muvofiq emas.

Amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish jinoyat qonunidagi jazodan ozod qilishning sakkizta turidan beshinchi turi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasi *birinchi qismiga* ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi, shaxs ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkinligi belgilangan.

Mazkur norma tahlili jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llashning uch xususiyatini o'zida ifodalaydi. Xususan:

birinchidan, muddatidan ilgari shartli ozod qilish ozodlikdan mahrum qilish (50-modda), intizomiy qismga jo'natish (49-modda), xizmat bo'yicha cheklash (47-modda), ozodlikni cheklash (48¹-modda) yoki axloq tuzatish ishlari (46-modda) jazosini o'taydiganlarga nisbatan qo'llaniladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo turlarining ketma-ketligi og'iridan yengiliga qarab bayon etilishi Jinoyat kodeksining 43-moddasidagi jazo tizimi ketma-ketligiga zid keladi. Vaholanki, muddatidan ilgari shartli ozod qilish og'ir turdagi jazolarga nisbatan yengil turdagi jazolarga ularning o'tash muddati nisbatan ozroq bo'lganligi uchun keng qo'llaniladi.

Shu bilan birga muddatidan ilgari shartli ozod qilish mumkin bo'lgan jazo turlarini qat'iy ro'yxatini cheklab, boshqa turdagi jazo turlariga nisbatan qo'llanilmasligini anglatadi. Jinoyat kodeksining 57-moddasida sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarni e'tiborga olib, alohida hollarda ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlashi mumkin.

Shunday ekan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni boshqa jazo turlariga nisbatan qo'llanilmasligi jinoyat qonunchiligining insonparvarlik va odillik prinsiplari, shu jumladan, jinoyat uchun jazo tayinlash nazariyasi va amaliyotiga mos kelmaydi;

ikkinchidan, muddatidan ilgari shartli ozod qilish qayd etilgan jazolarni o'tashga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Jazodan ozod qilishning mazkur turi qo'llanilishini uchun Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasi doirasida jazo tayinlangan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasi *ikkinchi qismiga* ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish 73-moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi.

Mazkur norma jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llashning ustuvor shartlarini ifodalaydi. Bunga ko'ra, mahkumga nisbatan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash uchun *birinchidan*, jazo turlari uchun o'rnatilgan

tartib-qoida talabalarini bajargan bo'lishi; *ikkinchidan*, mehnatga halol munosabatda bo'lishi talab qilinadi.

Shu o'rinda, mahkumga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash uchun yuqorida qayd etilgan har ikkala shartlarga rioya qilinishi borasida bahsli munozara yuzaga keladi. Aksariyat hollarda mahkum biror-bir ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmasligi mumkin, chunki sud qarorisiz majburiy mehnat ta'qiqlanadi. Yoki mehnatga halol munosabatda bo'lish deganda rasmiy ish joyidagi mehnat intizomiga rioya qilishimi yoki biror-bir ijtimoiy foydali mehnat nazarda tutilganmi degan munozarali vaziyatni vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, mahkum jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi uchun hukm qilingan jinoiy jazoning muayyan qismini o'tab bo'lganligini talab qilinadi. Xususan:

“a” bandiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

“b” bandiga ko'ra, og'ir jinoyati uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini;

“v” bandiga ko'ra, o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rt dan uch qismini.

Mazkur holatda Jinoyat kodeksining 57-moddasiga ko'ra, sud alohida hollarda ushbu Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlashi mumkinligi inobatga olinadigan bo'lsa, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni jinoyatlar tasnifidan kelib chiqqan holda qo'llash mahkum muayyan muddat davomida jazoni o'tashi natijasida xulq-atvoridagi o'zgarishlarni baholash imkonsizdek ko'rinadi. Shunga ko'ra, sud shaxsga nisbatan jinoyat uchun jazo tayinlashda ish holatlari va mahkumning shaxsidan kelib chiqqan holda jazoning qancha muddatini o'tagandan so'ng muddatidan ilgari ozod qilishni qo'llashni ko'rib chiqish muddatini hukmda ko'rsatib o'tishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasi to'rtinchi qismi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilmaydigan shaxslar doirasini belgilaydi. Xususan:

“a” bandiga ko'ra, umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilmasligi ushbu jazolarning maqsadi va mantig'iga muvofiqligini ifodalaydi;

“b” bandiga ko'ra, o'ta xavfli retsidivistga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilmasligi bunday shaxslarning jinoiy xulq-atvorining xususiyatidan kelib chiqib belgilangan;

“v” bandiga ko'ra, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish

qo'llanilmasligi ular tomonidan turli toifadagi jinoyatlar sodir etilgan bo'lishi mumkinligi yoki turli toifadagi va turli muddatlardagi jinoiy jazolarga hukm etilishi mumkinligi bois ushbu band qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq;

“g” bandiga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilmaydigan 8 ta, jumladan, 16 ta ijtimoiy xavfli qilmishlar ro'yxati keltirilgan bo'lib:

- javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik;
- o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tegganlik yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirganlik;
- o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsni jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirish bilan bog'liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik;
- o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirganlik yoki unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilganlik;
- voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik, xuddi shuningdek, uni tayyorlaganlik, tarqatganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etganlik;
- voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilganlik, fohishaxonalarni tashkil etganlik yoki saqlaganlik;
- O'zbekiston Respublikasiga, tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlik;
- yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarni kontrabanda qilganlik.

Mazkur norma bugungi kundagi kriminogen vaziyat va ayrim turdagi xavfli jinoyatlar sodir etilishining oldini olish uchun joriy etilgan deb e'tirof etish mumkin. Shu o'rinda qayd etish joizki, shaxs yuqorida qayd etilgan jinoyatlardan boshqa jinoyatlarni ham sodir etgan bo'lsa, ro'yxatda qayd etilmagan jinoyatlarni sodir etganligi uchun tayinlangan jazolardan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishga bo'lgan huquqi istisno etiladi. Albatta, bunday holat jinoyat qonunchiligidagi odillik prinsipiga muvofiqlikni rad qiladi.

Milliy jinoyat-huquqiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, mahkumni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish huquqni qo'llash amaliyotining turi (jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya)ga qarab, turli normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 164-moddasida (taqdimnoma kiritish) va Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasida (taqdimnomani ko'rib chiqish) mahkumni muddatidan ilgari jazodan ozod qilishga oid tartib-taomillarga xos bo'lgan normalarni kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari, jazodan ozod qilishning ushbu institutini qo'llashga oid mexanizmlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 27-dekabrda "Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 28-son qarorida batafsil bayon

etilgan. Xususan, Plenum qarorida sud qonunda nazarda tutilmagan asoslar, jumladan, oldingi jinoyatlari uchun sudlanganlik holati mavjudligi, tayinlangan jazo yengilligi, mahkum aybiga iqror emasligi, muayyan jazoni ijro etish muassasasida qisqa vaqt mobaynida bo'lganligi va h.k. bo'yicha jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni rad etishga haqli emasligi qayd etilgan.

Plenum qarorida belgilanishicha, mahkumda jazoni ijro etish davrida qo'llanilgan ta'sir choralarining mavjudligi, o'z-o'zidan, uning tayinlangan jazoni o'tashni davom ettirishi zarurligidan dalolat bermaydi. Mazkur masalani hal etishda, har doim, nafaqat bevosita iltimosnoma kiritilishi arafasida, balki jazoni o'tashning butun davrida mahkum tomonidan yo'l qo'yilgan har bir tartibbuzarlikning muayyan holatlari, og'irligi va xususiyati, ta'sir choralari olib tashlanishi yoki tugallanishiga oid ma'lumotlar, oxirgi ta'sir chorasi qo'llanilganidan so'ng o'tgan vaqt, mahkumning keyingi xulq-atvori va uni tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar inobatga olinishi ta'kidlangan.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish, faqat sud tomonidan tayinlangan jazoning qonunda nazarda tutilgan qismini o'tash paytida (hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar ushlab turilgan, qamoqda, uy qamog'ida saqlangan vaqtni hisobga olgan holda) o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida belgilanishicha, sudlar nafaqat mahkumlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni asossiz ravishda rad etishga, balki asossiz ravishda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga ham yo'l qo'ymasliklari lozim.

Sud qonunda nazarda tutilmagan asoslar, jumladan, oldingi jinoyatlari uchun sudlanganlik holati mavjudligi, tayinlangan jazo yengilligi, mahkum aybiga iqror emasligi, muayyan jazoni ijro etish muassasasida qisqa vaqt mobaynida bo'lganligi va h.k. bo'yicha jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni rad etishga haqli emas. Sodir etilgan jinoyat xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi (uning og'irligi va oqibatlarini) ham iltimosnoma yoki taqdimnomani rad etish uchun asos bo'lmaydi, chunki bu holatlar jazo tayinlangan vaqtda inobatga olingan bo'lib, bundan tashqari, JK 73-, 74-, 89- va 90-moddalarida nazarda tutilgan muddatlar belgilanishi mezonini hisoblanadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash moddiy, protsessual va idoraviy-normativ qonun hujjatlari bilan amalga oshiriladi. Jazodan ozod qilishni qo'llash asoslari va shartlari Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinsa, jazodan ozod qilishga taqdim etish Jinoyat-ijroiya kodeksi, jazodan ozod qilishni ko'rib chiqish Jinoyat-protsessual kodeksi, jazodan ozod qilish hujjatini ijro etish idoraviy-normativ hujjat bilan tartibga solinadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilik hujjatlari tahlil qilinganda ushbu institutni amaliyotda qo'llashga oid normalarda bir qator nomuvofiqliklar mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, Jinoyat kodeksining 73-moddasi

uchinchi qismi “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkum:” deb yoritilgan bo‘lsa, to‘rtinchi qismi “Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:” deb bayon etilgan. Mazkur ikkala qism orasida “o‘tashdan” degan so‘z farqli jihatni yuzaga keltiradi. Albatta, ushbu farq o‘rganilishi va tegishli ilmiy-nazariy qarash bayon etilishini taqozo qiladi. Chunki ushbu modda o‘talmagan yoki o‘tash boshlanmagan jazodan emas, balki tayinlanib, muayyan qismi o‘talgan ozod qilishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijro kodeksining 163-moddasi “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish hollari” deb nomlanib, ushbu moddaga ko‘ra, sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugagunga qadar mahkum muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda, jazo yengilrog‘i bilan almashtirilganda, kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi tufayli, amnistiya yoki afv etilganligi tufayli jazoni o‘tashdan ozod qilinishi mumkinligi bayon etilgan.

Biroq Jinoyat kodeksining 73-moddasi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni belgilar ekan, mahkumga nisbatan tayinlangan amaldagi jinoiy jazoning muayyan turidan muddatidan ilgari ozod qilish tartibini belgilaydi. Jinoyat-ijroiya kodeksida esa jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish jazo yengilrog‘i bilan almashtirilganda, kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi tufayli, amnistiya yoki afv etilganligi tufayli amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasi jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni protsessual tartibini belgilaydi. Biroq Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan tartibga ko‘ra, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun taqdim etish Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasida belgilangan tartibda amalga oshirilishi qayd etilgan. Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasi ham jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish bilan birgalikda jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni sud tomonidan ko‘rib chiqishni tartibga soladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012-yil 29-dekabrda 174-son buyrug‘i (2013-yil 29-iyul, 2495) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining XVIII bobi “Jazoni o‘tashdan ozod qilish”, 1-paragrafi “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish” deb nomlansa-da, 417-bandida sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugagunga qadar mahkum muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda, jazo yengilrog‘i bilan almashtirilganda, kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi tufayli, amnistiya yoki afv etilganligi tufayli jazoni o‘tashdan ozod qilinishi mumkinligi bayon etilgan.

Xulosa

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilish, sohaga oid qonunchilik va sud amaliyotini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish tahlil (analiz), sintez, qiyoslash va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi.

Mavzu yuzasidan tadqiqot olib borish, ilmiy-nazariy tahlillar va xulosalar ishlab chiqishda sotsiologik, statistik va hujjatlar tahlili metodlariga asoslangan holda amalga oshirildi.

Tadqiqotda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini takomillashtirish masalalarini o'rganish sohaga oid olib borilgan tadqiqotlar hamda amaldagi qonunchilik hujjatlarini o'rganish va tahlil qilishga e'tibor qaratildi.

Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarni huquqni qo'llash amaliyoti va mavjud qonunchilikka muvofiqligi o'rganilib, tadqiqot ishlari natijalari asosida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Jazodan ozod qilishga oid ilmiy-nazariy ta'riflar, shuningdek, Jinoyat kodeksidagi jazodan ozod qilishning boshqa turlarini tahlilidan kelib chiqqan holda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish institutiga ilmiy-nazariy va huquqiy ta'rif berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, "Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish – sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash davomida tuzalish yo'liga o'tgan mahkumlarni o'talmay qolgan jazo turlaridan ozod qilish" deb ta'rif berilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 73-moddasi birinchi qismini "Axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi mumkin. Shaxs ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkin" degan mazmunda bayon etilishi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash mahkum hukm etilgan yengil jazo turlaridan og'iriga qarab amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijro qonunchiligi, shu jumladan, Oliy sud Plenumi tushuntirishlarida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish bitta protsessual mexanizm sifatida bayon etilgan. Biroq jinoyat qonunchiligida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishning mustaqil ikkita alohida turlari sifatida belgilangan. Mazkur holat moddiy va protsessual huquq normalari o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Shunga ko'ra, Jinoyat kodeksidagi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni bitta modda doirasida belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi [New Uzbekistan Strategy]. Tashkent, O'zbekiston Publ., 2021, pp. 107, 464.
2. Stephen O. Punishment. A Thesis submitted for the degree of Doctor of philosophy in the Department of Moral Philosophy at the University of Glasgow. 1979, pp. 322, 464.
3. Rozimova Q.Y. Bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash [Sentencing for multiple crimes and multiple convictions]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2020, pp. 16, 20.

4. Xolikulov U.Sh. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning nazariy asoslari [Theoretical foundations of improving the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan in the context of deepening democratic reforms]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2019, pp. 20, 57.

5. Pipilenko O.A. Uslovno-dosrochnoe osvobozhdenie: teoreticheskie i prakticheskie voprosy [Parole: theoretical and practical issues]. Rostov-on-Don, Rostov Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2009, p. 3.

6. Committee of Ministers of the Council of Europe on parole. Recommendation No. 22. International law Publ., 2006.

7. Turgunboyev E.O. Jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the institution of release from punishment]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2023, pp. 102, 274.

8. Yakovleva L.V. Institut osvobozhdeniya ot nakazaniya v rossiyskom prave [The Institute of Release from Punishment in Russian Law]. Moscow, All-Russian Research Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2003, p. 11.

9. Usmonaliyev M. Hozirgi zamon jinoyat huquqi muammolari [Contemporary criminal law problems]. Tashkent TSIL Publ., 2006, pp. 7, 325.

10. Shcherba D.A. Uslovno-dosrochnoe osvobozhdenie: teoreticheskie i prakticheskie voprosy [Parole: theoretical and practical issues]. Khabarovsk, Far Eastern Legal Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2007, p. 10.

11. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2021, pp. 4, 66, 78.

12. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Criminal Law Course of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 2. The Doctrine of Punishment. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, Complex Print Publ., 2018, pp. 226, 335.

13. Usmanov I.M. Uslovno-dosrochnoe osvobozhdenie osuzhdennykh k lisheniyu svobody po rossiyskomu zakonodatel'stvu i praktika ego primeneniya v Tatarstane [Parole of prisoners sentenced to imprisonment under Russian law and its application in Tatarstan]. Samara, Kazan Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2014, pp. 7, 22.

14. Efremova I.A. Institut osvobozhdeniya ot nakazaniya v teorii ugovolnogo prava, zakonodatel'noy i sudebnoy praktike [The Institute of Release from Punishment in the Theory of Criminal Law, Legislative and Judicial Practice]. Saratov, Saratov State Law Academy, 2018, pp. 199, 504.

15. Axmedova G.U. Qamoq jazosini o'tayotgan ayollarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirish [Specific features of women serving prison sentences and their improvement]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2019, pp. 28, 76.

16. Salayev N.S. Penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi [Preventive function of the penitentiary system]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2017, pp. 24, 61.

17. Akramova M.T. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asoslari [Special grounds for exemption from criminal liability]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2022, 19, 23.

Kelib tushgan / Получено / Received: 23.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.3./BUFN4145

UDC: 342.13(045)(575.1)

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ И ЗАКОННЫХ ИНТЕРЕСОВ ЛИЧНОСТИ ПРИ ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Парахатова Шахноза Ерназаровна,
базовый докторант Ташкентского государственного
юридического университета
ORCID: 0009-0003-0399-1436
e-mail: parakhatovashakhnoza@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются правовые и процессуальные аспекты обеспечения прав и законных интересов личности при получении образцов для проведения экспертного исследования в рамках уголовного процесса Республики Узбекистан. Актуальность темы определяется необходимостью соблюдения баланса между задачами уголовного правосудия и конституционно гарантированными правами граждан, включая право на неприкосновенность личности, защиту от произвольного вмешательства и право на судебную защиту. Анализируются нормативно-правовые акты, регулирующие порядок получения образцов: основания, процедура и допустимые методы отбора рассматриваются с учётом принципов законности, соразмерности и недопустимости унижения человеческого достоинства. Особое внимание уделено проблемным аспектам правового регулирования, связанным с необходимостью получения согласия лица, обеспечением участия защитника, а также осуществлением судебного контроля при принудительном отборе образцов. Важное место в статье отведено сравнительно-правовому анализу законодательства Республики Узбекистан и правовых систем Российской Федерации, Эстонии, Германии, Республики Казахстан и Кыргызской Республики. Сопоставление позволяет выявить как общие подходы, так и существенные различия в регулировании процедуры получения образцов, степени защиты прав личности и механизмов контроля за соблюдением законности. На основе проведённого анализа сформулированы предложения по совершенствованию национального законодательства, направленные на укрепление гарантий прав личности и повышение эффективности уголовного судопроизводства в Узбекистане.

Ключевые слова: уголовный процесс, экспертиза, образцы, экспертное исследование, судопроизводство, права, личность, правосудие, принудительный отбор, судебный контроль, неприкосновенность

EKSPERT TEKSHIRUVI UCHUN NAMUNALAR OLISHDA SHAXSNING HUQUQLARI VA QONUNYI MANFAATLARINI TA'MINLASH

Paraxatova Shaxnoza Yernazarovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessi doirasida ekspert tekshiruvini o'tkazish uchun namunalar olishda shaxsning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashning huquqiy va protsessual jihatlarini ko'rib chiqildi. Mavzuning dolzarbligi jinoiy odil sudlov manfaatlarini va fuqarolarning Konstitutsiyada kafolatlangan huquqlari, jumladan, shaxs daxlsizligi, asossiz aralashuvdan himoyalash hamda sud himoyasi huquqi o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati bilan belgilanadi. Qonuniylik, mutanosiblik va inson qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyillarini hisobga olgan holda tadqiqotda namunalar olish tartibi tahlil qilindi. Jumladan, tanlash asoslari, tartibi va ruxsat etilgan usullarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ko'rib chiqildi. Shaxsning roziligini olish zarurati, himoyachi ishtirokini ta'minlash, shuningdek, majburiy namuna olishda sud nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq huquqiy tartibga solishning muammoli jihatlariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Rossiya Federatsiyasi, Estoniya, Germaniya, Qozog'iston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi huquqiy tizimlarining qiyosiy-huquqiy tahlili tadqiqotning muhim qismi hisoblanadi. Taqqoslash orqali namunalar olish tartibini belgilash, shaxs huquqlarini himoya qilish darajasi va qonuniylikka rioya etilishini nazorat qilish mexanizmlaridagi ham umumiy, ham sezilarli farqlarni aniqlash imkoni tug'ildi. Tahlillar asosida O'zbekistonda shaxs huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash va jinoyat sudlov ishlarini yuritish samaradorligini oshirish maqsadida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, ekspertiza, namunalar, ekspert tekshiruv, sud ishlarini yuritish, huquqlar, shaxs, odil sudlov, majburiy namuna olish, sud nazorati, daxlsizlik

ENSURING THE RIGHTS AND LEGAL INTERESTS OF INDIVIDUALS WHEN OBTAINING SAMPLES FOR EXPERT RESEARCH

Parakhatova Shakhnoza Yernazarovna,
Doctoral student at Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines the legal and procedural aspects of ensuring the rights and legitimate interests of individuals when obtaining samples for expert examination

within the framework of the criminal proceedings of the Republic of Uzbekistan. The relevance of the topic is determined by the need to balance the tasks of criminal justice with the constitutionally guaranteed rights of citizens, including the right to personal inviolability, protection from arbitrary interference, and the right to judicial protection. Regulatory legal acts governing the procedure for obtaining samples are analyzed: the grounds, procedures, and permissible methods of selection are considered, taking into account the principles of legality, proportionality, and inadmissibility of degrading human dignity. Particular attention was paid to the problematic aspects of legal regulation related to the need to obtain the consent of a person, ensuring the participation of a defense attorney, as well as the implementation of judicial control during the compulsory sampling of samples. An important place in the article is given to the comparative legal analysis of the legislation of the Republic of Uzbekistan and the legal systems of the Russian Federation, Estonia, Germany, the Republic of Kazakhstan, and the Kyrgyz Republic. Comparison allows for the identification of both general approaches and significant differences in regulating the sampling procedure, the degree of protection of individual rights, and the mechanisms for monitoring compliance with legality. Based on the analysis conducted, proposals have been formulated for improving national legislation aimed at strengthening the guarantees of individual rights and increasing the effectiveness of criminal proceedings in Uzbekistan.

Keywords: criminal procedure, examination, samples, expert examination, judicial proceedings, rights, individual, justice, compulsory collection, judicial control, inviolability

Введение

В условиях постоянного совершенствования уголовного судопроизводства одной из приоритетных задач правового государства остаётся обеспечение надлежащей защиты прав и свобод личности. Особую значимость в этом контексте приобретает вопрос получения образцов для экспертного исследования, поскольку данная процессуальная мера непосредственно затрагивает конституционные права человека на неприкосновенность личности и защиту от произвольного вмешательства в частную жизнь. Несмотря на то что получение образцов закреплено в законодательстве как необходимый элемент доказывания, на практике оно нередко сопровождается нарушением прав участников уголовного процесса, особенно в случаях применения принудительных мер.

Актуальность рассматриваемой проблемы обусловлена тем, что получение образцов биологического происхождения в первую очередь сопряжено с правом лица на личную неприкосновенность. В законодательстве Республики Узбекистан установлен общий порядок получения образцов, однако в правоприменительной практике нередко возникают случаи произвольного вмешательства в личную сферу, а также недостаточного информирования участников процесса о целях и возможных последствиях предоставления

образцов. Особую обеспокоенность вызывает недостаточность процессуальных гарантий для уязвимых категорий граждан, таких как несовершеннолетние, женщины, лица с ограниченными возможностями и другие. Представляется, что всестороннее изучение и совершенствование механизмов правовой защиты участников уголовного процесса на этапе получения образцов является важной задачей как с научной, так и с практической точки зрения.

В данной научной работе проанализированы нормы как национального, так и зарубежного законодательства, а также использованы теоретические и практические подходы отечественных и иностранных исследователей. Методологическая основа исследования включает методы анализа и синтеза, индукции и дедукции, сравнительно-правовой анализ и метод наблюдения.

Основная часть

В научной литературе по уголовно-процессуальному праву особое внимание уделяется исследованию правовых, теоретических и практических аспектов, связанных с обеспечением прав и законных интересов участников уголовного процесса. В данном направлении проводятся как фундаментальные, так и комплексные исследования, направленные на разработку эффективных механизмов реализации как отдельных прав, так и всего комплекса гарантий, закреплённых Конституцией Республики Узбекистан и уголовно-процессуальным законодательством для лиц, вовлечённых в уголовное судопроизводство в связи с совершением преступления.

Поскольку получение образцов у подозреваемого либо обвиняемого может сопровождаться применением мер процессуального принуждения, осуществление данной процедуры должно неизменно основываться на принципах нравственности и гуманизма. Недопустимы действия, нарушающие личную неприкосновенность, включая разглашение сведений, касающихся интимной стороны жизни, унижение чести и достоинства личности, а также создание условий, представляющих угрозу для здоровья или жизни лица, в отношении которого проводится соответствующее процессуальное действие.

Значимость данного следственного мероприятия трудно переоценить. Полученные образцы, используемые экспертом в рамках экспертного исследования, позволяют установить причастность или непричастность лица к совершению преступления, выявить факты совершения одним лицом нескольких преступлений, а также проверить версии, выдвинутые следователем в ходе расследования.

Статья 27 в новой редакции Конституции Республики Узбекистан закрепляет, что каждый имеет право на свободу и личную неприкосновенность. Никто не может быть подвергнут задержанию или содержанию под стражей иначе как на основании закона. Задержание, заключение под стражу или иной вид ограничения свободы допускаются исключительно по решению суда. Несмотря на правозащитную направленность Основного закона, в ходе уголовного расследования дознаватель, следователь и суд неизбежно сталкиваются с необходимостью изъятия образцов для экспертного исследования, что

затрагивает базовые права личности.

Уголовно-процессуальный кодекс (далее – УПК) Республики Узбекистан предусматривает полномочия дознавателя, следователя и суда на получение образцов для экспертного исследования. В соответствии со статьёй 190 УПК Республики Узбекистан образцы могут быть получены у подозреваемого, обвиняемого, потерпевшего, а также лица, в отношении которого ведётся производство по применению принудительных мер медицинского характера. Если имеются достаточные основания полагать, что следы на месте происшествия или на вещественных доказательствах могли быть оставлены иными лицами, образцы допускается получить и у этих лиц.

Показателен опыт Республики Казахстан: согласно части второй статьи 264 УПК Республики Казахстан при наличии достаточных данных о том, что следы на месте происшествия или на вещественных доказательствах могли быть оставлены иным лицом, образцы могут быть получены у него лишь после допроса в качестве свидетеля или потерпевшего об обстоятельствах, при которых могли образоваться указанные следы [1]. Данный подход направлен на обеспечение надлежащего процессуального статуса лица, у которого планируется получение образцов, и на предотвращение необоснованного вмешательства в его право на личную неприкосновенность.

Анализ УПК Российской Федерации свидетельствует, что в круг таких лиц включены также свидетели и представители юридических лиц. Можно предположить, что в национальной законодательческой практике они охватываются понятием «иные лица», упомянутым в части второй статьи 190 УПК Республики Узбекистан. Вместе с тем статья 192 предусматривает возможность принудительного получения образцов у подозреваемых, обвиняемых, подсудимых и потерпевших, уклоняющихся от явки, при условии, что применяемые методы являются безболезненными и безопасными для жизни и здоровья человека.

Эта позиция согласуется с точкой зрения В.Т. Томина и М.П. Полякова: «Решение следователя о получении образцов для сравнительного исследования обязательно для обвиняемого и подозреваемого. В случае отказа последнего от сотрудничества образцы, характер получения которых это допускает, могут быть получены принудительно (в необходимых случаях после консультации с врачом). Принудительным получением образцов не следует злоупотреблять. Решение об этом принимается в зависимости от значимости и незаменимости соответствующих образцов для достижения цели уголовного преследования. До осуществления принудительного получения образцов следователь должен принять меры для того, чтобы убедить лицо сотрудничать (разъяснить их значение для установления истины, то, что получение образцов будет производиться максимально осторожно, и т. д.)» [2].

Аналогичную позицию занимает Европейский суд по правам человека, который последовательно разграничивает терапевтическую необходимость и необходимость получения доказательств при осуществлении медицинских,



в том числе инвазивных вмешательств. Суд подчёркивает значимость процессуальных гарантий для лиц, находящихся под уголовным преследованием, а также обязанность государственных органов не переступать порог минимального уровня суровости, который относит жалобу к сфере действия статьи 3 Конвенции [3].

Автором настоящей научной статьи проанализированы позиции как сторонников принудительного получения образцов, так и его противников. Так, такие учёные, как О.Я. Баева, Д.А. Солодова, В.В. Кальницкий, Е.Р. Россинская, А.Г. Филиппова и А.С. Шаталова, придерживаются концепции, допускающей при определённых условиях применение принуждения при проведении следственного действия. В то же время Д.К. Брагер отмечает, что принудительное получение образцов неизбежно связано с применением насилия и ограничением права на личную неприкосновенность [4]. Действительно, изъятие, особенно биологических образцов, сопровождается действиями, которые могут затронуть право лица на телесную неприкосновенность. Тем не менее в законодательстве многих зарубежных стран закреплена возможность принудительного получения образцов у обвиняемого. Так, например, УПК ФРГ предусматривает возможность взятия проб крови без согласия обвиняемого и проведения медицинских манипуляций с соблюдением правил врачебного искусства, если такие действия не представляют опасности для его здоровья [5].

Статья 196 УПК Республики Узбекистан устанавливает гарантии охраны прав личности при получении образцов. В частности, методы и научно-технические средства, используемые для их изъятия, должны быть безопасны для жизни и здоровья человека. Применение сложных медицинских процедур или методов, вызывающих сильные болевые ощущения, допускается лишь при наличии согласия лица, у которого берутся образцы, а если оно является несовершеннолетним или страдает психическим расстройством – с согласия его законного представителя, опекуна либо попечителя. Кроме того, если получение образцов связано с обнажением тела, врач, иной специалист и понятые должны быть одного пола с лицом, у которого изымаются образцы.

Принуждение, как известно, может носить как психический, так и физический характер. При этом большинство исследователей, допускающих возможность применения принуждения при получении образцов, не уточняют его конкретной формы. Однако отдельные авторы подразумевают под этим именно физическое воздействие. В частности, А.В. Писарев предлагал включить в УПК РФ норму общего характера, предусматривающую возможность применения физической силы (с указанием на допустимость использования наручников и подручных средств для связывания) при уклонении лица от исполнения процессуальных обязанностей или законных требований дознавателя, следователя либо прокурора о добровольном участии в следственном действии. При этом он акцентировал внимание на необходимости установления исключений из данного правила, в частности в отношении

беременных женщин и лиц, не достигших 14-летнего возраста [6].

Исходя из толкования уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан, к обязательным участникам получения образцов для экспертного исследования относятся дознаватель, следователь, суд и лицо, у которого изымаются образцы (подозреваемый, обвиняемый, свидетель, потерпевший). Ко второстепенным участникам относятся специалист и защитник. Поскольку получение образцов, являющихся продуктами жизнедеятельности человека (кровь, сперма и др.), связано с вмешательством в организм, соблюдение морально-этических норм приобретает особое значение. В определённой мере это обеспечивается привлечением специалистов и применением соответствующих технических средств.

Участие специалиста при получении образцов биологического происхождения зачастую является необходимым, что объясняется специфическими требованиями к их отбору. В случаях когда процедура сопряжена с риском причинения вреда организму человека, привлечение специалиста становится методически обязательным. Его участие позволяет обеспечить получение качественных образцов, пригодных для дальнейшего экспертного исследования. Важным аспектом деятельности специалистов в уголовном процессе является не только соблюдение правовых требований, но и следование этическим нормам, предполагающим независимость, добросовестность и уважение к правам всех участников.

В отдельных случаях следователь вправе самостоятельно произвести отбор некоторых видов биологических образцов, не представляющих угрозы для здоровья и не требующих специальных медицинских знаний (например, слюна, эпителиальные клетки, волосы и др.). В этой связи представляется целесообразным предоставление следователю процессуальной свободы в принятии решения о необходимости привлечения специалиста с учётом конкретных условий, характера образцов и степени вмешательства в организм человека. При этом для обеспечения безопасности следователь может истребовать медицинское заключение о возможности получения образцов без ущерба для здоровья конкретного лица.

Любые меры принудительного характера должны быть минимально инвазивными, сводясь, по возможности, к предотвращению сопротивления со стороны лица посредством кратковременных и безболезненных процедур (например, дактилоскопирование, взятие слюны или крови). В таких ситуациях участие прокурора не исключается, особенно когда необходимо обеспечить контроль за соблюдением прав человека и законности проводимых мероприятий.

И.Р. Астанов в своей научно-исследовательской работе предлагает дополнить статью 189 УПК Республики Узбекистан положением о том, что в процессе получения образцов могут участвовать понятые, а при необходимости и переводчик. Это, по его мнению, позволит сделать следственное действие более законным и обеспечит понимание процедуры лицами, не владеющими языком,



на котором ведётся производство [7]. На наш взгляд, данное предложение представляется обоснованным, так как оно способствует полноценной реализации прав участников и укреплению законности в уголовном процессе.

Что касается вопроса о приглашении понятых при получении образцов для экспертного исследования, то он должен решаться дознавателем или следователем с учётом тактических соображений. Так, привлечение понятых целесообразно в тех случаях, когда существует вероятность возникновения конфликтной ситуации при осуществлении принудительного отбора образцов. Вместе с тем участие понятых исключается в ситуациях, связанных с необходимостью обнажения лица, у которого изымаются образцы. В иных случаях следует учитывать, что понятые должны быть одного пола с лицом, у которого производится отбор. Обоснованным представляется также участие понятых при получении образцов с привлечением специалиста.

В контексте получения образцов для экспертного исследования особую актуальность приобретает проблема надлежащего обеспечения прав и законных интересов участников уголовного судопроизводства. Представляется целесообразным обратить внимание на законодательный опыт Кыргызской Республики, согласно которому принудительное изъятие биологических образцов (в том числе крови, волос, выделений организма человека) допускается лишь на основании постановления следственного судьи. Исключение составляют случаи, когда такое изъятие может нарушить право на уважение чести и достоинства личности (часть четвёртая статьи 44 УПК Кыргызской Республики) [8]. С учётом изложенного обоснованным представляется внесение изменений в статью 191 УПК Республики Узбекистан, дополнив её положением о необходимости постановления следственного судьи для принудительного изъятия биологических образцов у живых лиц. Одновременно следует расширить компетенцию следственного судьи, предоставив ему полномочия рассматривать ходатайства о принудительном получении таких образцов для проведения экспертных исследований.

Предлагаемое нововведение направлено на достижение разумного баланса между задачами формирования доказательственной базы в уголовном процессе и обеспечением прав и свобод личности, гарантированных Конституцией Республики Узбекистан, а также международными правовыми актами. Подобное регулирование будет способствовать применению принудительных мер исключительно в случаях, когда иные способы получения доказательств недоступны или неэффективны, тем самым минимизируя вмешательство в личную сферу и обеспечивая соответствие основополагающим принципам уголовного судопроизводства.

Тактические особенности получения образцов для экспертного исследования ориентированы, с одной стороны, на получение доброкачественного образца, соответствующего установленным требованиям, при которых он может быть использован при исследовании, а с другой – на охрану чести и достоинства

личности.

К типичным нарушениям и ошибкам, допускаемым при получении образцов, можно отнести: позднее назначение экспертизы; несвоевременное направление образцов на исследование; передачу на экспертизу избыточного количества объектов, часть которых не имеет отношения к делу и лишь затрудняет проведение экспертного анализа.

Следовательно, в целях устранения вышеупомянутых нарушений и обеспечения прав личности при получении образцов для экспертного исследования необходимо обеспечить несомненность их происхождения от определённого объекта, получение образцов надлежащего качества и количества, строгое соблюдение требований законности и морально-этических норм, а также применение специальных знаний и технико-криминалистических средств и методов. Всё это должно служить основной цели уголовного процесса – установлению истины.

Изучение судебно-следственной практики показывает, что в отдельных случаях свидетели, потерпевшие, обвиняемые и подозреваемые отказываются участвовать в процедуре получения образцов (например, давать образцы почерка, крови и др.), выдвигая при этом различные мотивы. Следует отметить, что законодатель не предусматривает ответственности за отказ от предоставления образцов со стороны подозреваемого или обвиняемого. По мнению В.Л. Жбанкова, поскольку подобная ответственность не установлена, изымать образцы принудительно в таких случаях следователь не вправе [9]. Учёный считает, что следователь обязан разъяснить значение данного процессуального действия, и зачастую этого бывает достаточно. Если же разъяснение не приносит результата, следует попытаться обнаружить и изъять свободные либо условно-свободные образцы и использовать их в исследовании, однако это допустимо только тогда, когда они способны заменить экспериментальные образцы.

По мнению Ю.А. Кудрявцевой, получение образцов возможно и до возбуждения уголовного дела, но исключительно при добровольном согласии лица. Так, потерпевший, активно содействуя расследованию преступления, может добровольно предоставить образцы биологического происхождения ещё до возбуждения дела с целью исключить их принадлежность следам, обнаруженным на месте происшествия, иным лицам. Однако, по мнению автора, такие образцы не могут быть положены в основу судебной экспертизы, так как они получены ненадлежащим субъектом и у лица, которое на момент их предоставления ещё не обладало процессуальным статусом потерпевшего. Соответственно, данные образцы могут быть использованы лишь для предварительных исследований, результаты которых имеют ориентирующее значение при подтверждении либо опровержении следственных версий [10].

На наш взгляд, нельзя исключать вероятность того, что образцы, полученные на стадии возбуждения уголовного дела, могут содержать криминалистически значимую информацию. Следовательно, принудительное получение образцов



для экспертного исследования на данном этапе не должно полностью исключаться, если используемые методы являются безопасными для жизни и здоровья человека.

Анализ уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан также показывает отсутствие специальных норм, регулирующих порядок получения образцов для экспертного исследования у несовершеннолетних лиц. Между тем статья 37 Конвенции о правах ребёнка обязывает государства-участники обеспечивать, чтобы ни один ребёнок не подвергался пыткам или иным жестоким, бесчеловечным либо унижающим достоинство видам обращения или наказания, а каждый лишённый свободы ребёнок пользовался гуманным обращением и уважением неотъемлемого достоинства своей личности с учётом потребностей возраста [11]. Аналогичное положение закреплено в статье 26 Конституции Республики Узбекистан, где указано, что честь и достоинство человека неприкосновенны, никто не может быть подвергнут пыткам, насилию или другому жестокому, бесчеловечному либо унижающему достоинство обращению или наказанию. В связи с этим представляется целесообразным модифицировать нормы глав 23 и 60 УПК Республики Узбекистан, конкретизировав порядок получения образцов у несовершеннолетних с учётом международных стандартов защиты прав ребёнка.

Несмотря на то что в УПК Республики Узбекистан закреплён процессуальный порядок получения образцов, порядок их утилизации и уничтожения не определён. Учитывая данные обстоятельства, И.Р. Астанов в своей научной работе предложил дополнить статью 197¹ положением, отражающим порядок утилизации полученных образцов и указывающим, какие лица должны участвовать в этом процессе [7]. Отсутствие специального регулирования в части хранения, использования и уничтожения персональных данных, полученных при отборе образцов, противоречит принципу конфиденциальности частной жизни, а следовательно, и нормам Конституции Республики Узбекистан.

Законодательство Эстонии предусматривает схожие правила относительно сравнительных материалов: государственное экспертное учреждение, как правило, возвращает сравнительный материал лицу, ведущему производство, вместе с актом экспертизы или исследования, после чего этот материал уничтожается самим указанным лицом. Данный факт фиксируется в письменном виде и прилагается к делу.

Трудно не согласиться с мнением И.Р. Астанова о том, что в ходе проведения экспертного исследования необходимо обеспечивать участие подозреваемого, обвиняемого, подсудимого или потерпевшего, то есть создавать условия для наблюдения за процессом через смотровое окно. Такая практика, давшая положительные результаты во многих странах, укрепляет юридическую силу экспертного заключения, повышает уровень доверия к нему, предупреждает возникновение излишних вопросов и тем самым способствует обеспечению

законности проведения данного процессуального действия [7].

В первую очередь на следователя возлагается обязанность по обеспечению прав и законных интересов лиц, участвующих в процедуре получения образцов для экспертного исследования. В соответствии с требованиями уголовно-процессуального закона следователь обязан разъяснить указанным лицам их процессуальные права и обязанности, а также создать реальные условия для их осуществления. Кроме того, он должен гарантировать личную безопасность участников следственного действия, принять предусмотренные законом меры по охране их жизни, здоровья, чести, достоинства и имущества, а также содействовать выявлению и привлечению к ответственности лиц, допустивших нарушения указанных прав.

В целях обеспечения надлежащих условий для проведения предварительного расследования закон предоставляет следователю полномочие предупреждать потерпевшего, переводчика, эксперта, специалиста, понятых и иных лиц, присутствующих при получении образцов, о недопустимости разглашения сведений, ставших им известными в ходе предварительного следствия. В подтверждение данного обязательства от них берётся подписка с предупреждением об установленной законом ответственности.

Эффективное и правомерное получение образцов для экспертного исследования невозможно без применения соответствующих научно-технических средств. Их использование должно основываться на принципах законности и этичности, исключая нарушение прав и законных интересов граждан. Для реализации указанных задач следственные органы обеспечиваются необходимыми криминалистическими средствами. При необходимости применяются звукозапись, видеозапись, судебно-оперативная фотография и иные технические средства фиксации и изъятия образцов.

Заключение

Настоящее исследование позволяет заключить о высокой степени актуальности и значимости проблемы получения образцов для экспертного исследования в уголовном процессе с позиции защиты конституционных прав личности. Нами проведён всесторонний анализ нормативной базы Республики Узбекистан, сопоставление её с законодательством ряда зарубежных стран, а также выявлены пробелы в регулировании отдельных аспектов, включая защиту уязвимых категорий граждан, судебный контроль за принудительным получением образцов, порядок их утилизации и участие специалистов.

Представленные предложения, в частности введение обязательного судебного постановления для принудительного изъятия биологических образцов и дополнение процессуальных норм, направлены на усиление гарантий прав личности. Особое внимание уделено необходимости соблюдения принципов законности, этичности и соразмерности применяемых мер.

Подчёркивается, что получение образцов для экспертного исследования при соблюдении тактических требований и в строгом



соответствии с законодательством обеспечивает возможность проведения квалифицированного экспертного анализа и получения доказательств, необходимых для эффективного расследования преступлений.

Таким образом, данная научная работа предлагает системный взгляд на правовое регулирование процесса получения образцов, обосновывая необходимость реформ, которые одновременно гарантируют соблюдение прав личности и способствуют повышению результативности уголовного судопроизводства.

REFERENCES

1. Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575852
2. Commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation. Moscow, Jurayt Publ., 2011, vol. 5, p. 138.
3. Report on the study 'Bioethical issues in the light of the case law of the European Court of Human Rights. Council of Europe/European Court of Human Rights, 2012. Available at: http://www.echr.coe.int/Documents/Research_report_bioethics_RUS.pdf
4. Brager D.K. Prinuditel'noe provedenie osvidetel'stvovaniya i poluchenie obraztsov dlya sravnitel'nogo issledovaniya: otdel'nye problemy [Compulsory examination and collection of samples for comparative analysis: specific issues]. *Bulletin of Tomsk State University*, 2013, vol. 377, pp. 99–101. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/prinuditelnoe-provedenie-osvidetelstvovaniya-i-poluchenie-obraztsov-dlya-sravnitelnogo-issledovaniya-otdelnye-problemy>
5. German Code of Criminal Procedure. 2017. Available at: <https://publishup.uni-potsdam.de/files/6039/sdrs02.pdf>
6. Pisarev A.V. Proizvodstvo sledstvennykh deystviy, ogranichivayushchikh pravo grazhdan na lichnyuyu neprikosновенность [Conducting investigative actions that restrict citizens' right to privacy]. Omsk, 2002, p. 24. Available at: <https://www.dissercat.com/content/proizvodstvo-sledstvennykh-deistvii-ogranichivayushchikh-pravo-grazhdan-na-lichnyuyu-neprikos>
7. Astanov I.R., Protsessual'nye i kriminalisticheskie aspekty ispol'zovaniya spetsial'nykh znaniy po ugovnym delam [Procedural and forensic aspects of the use of specialised knowledge in criminal cases]. 2018.
8. Criminal Procedure Code of the Kyrgyz Republic. 2021, no. 129. Available at: <https://cbd.minjust.gov.kg/3-37/edition/2086/ru>
9. Zhbakov V.A. Poluchenie obraztsov dlya sravnitel'nogo issledovaniya [Obtaining samples for comparative study]. Moscow, 1992, p. 55.
10. Kudryavtseva Yu.A. Poluchenie obraztsov dlya sravnitel'nogo issledovaniya

v ugolovnom sudoproizvodstve Rossii (protsessual'naya sushchnost', poryadok, dokazatel'stvennoe znachenie) [Obtaining samples for comparative analysis in Russian criminal proceedings (procedural nature, procedure, evidentiary value)]. 2013, p. 120.

11. Convention on the Rights of the Child. UNICEF. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.shtml

12. Khidoyatov B. Nekotorye voprosy dosledstvennoy proverki v ugolovnom protsesse Respubliki Uzbekistan [Some issues of pre-investigation checks in criminal proceedings of the Republic of Uzbekistan]. *Bulletin of Legal Sciences*, 2020, pp. 127–134.

13. Abdurakhimov M.Kh. Procedural problems of obtaining samples for examination and their solutions. *Journal of Law Research*, 2022, vol. 7, iss. 3. pp. 127–134.

14. Bazarova D.B. Sud tibbiyoti [Forensic medicine]. 2015.

15. Bayev O.Ya. Taktika sledstvennykh deystviy [Tactics of investigative actions]. Moscow, Yurlitinform Publ., 2013.

Kelib tushgan / Получено / Received: 28.08.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 03.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.3./GAAN1654

UDC: 343.35+328.185(045)(575.1)

TRANSPORT INFRATUZILMASI LOYIHALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI SAMARALI CHORALARNING XALQARO TAJRIBASI: TAHLIL VA TAVSIYALAR

Mirzayeva Mohina Srojiddinovna,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-4983-0770

e-mail: mohinamirzayeva1994@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqola yo'l-transport infratuzilmasi loyihalarida korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro tajribasi, amalga oshirilgan ishlarning samarali choralari tahliliga bag'ishlangan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar – ochiq tender tizimlari, fuqarolik jamiyati nazorati, xalqaro monitoring organlari va javobgarlik mexanizmlari – infratuzilma loyihalarining samaradorligi va sifatini oshirishda muhim vositadir. Bunday tajribalarni o'rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb vazifalardan biridir. 2022–2024-yillarda O'zbekistondagi yo'l-qurilish sohasida tender jarayonlarida aniqlangan qoidabuzarliklar, davlat xaridlarida shaffoflik yetishmasligi, moliyaviy mablag'larni suiiste'mol qilish holatlari va ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy oqibatlari tavsifiy tahlil usulida ko'rib chiqildi. Xalqaro tajribadan Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tavsiyalari o'rganildi. Shuningdek, Ukrainadagi "ProZorro", Janubiy Koreyadagi KONEPS (Korea ON-line E-Procurement System), Turkiyadagi EKAP (Electronic Public Procurement Platform) kabi elektron xarid tizimlarining ochiqlik, raqamli integratsiya va hisobdorlikni ta'minlashdagi afzalliklari tahlil qilindi. Muallif milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, elektron tender platformalarini rivojlantirish, mustaqil monitoring organlarini kuchaytirish va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq takliflarini ilgari surgan.

Kalit so'zlar: transport infratuzilmasi, korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat xaridlari, xalqaro tajriba, elektron tender tizimi, shaffoflik

МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА ЭФФЕКТИВНЫХ АНТИКОРРУПЦИОННЫХ МЕР В ПРОЕКТАХ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ: АНАЛИЗ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Мирзаева Мохина Срожиддиновна,
самостоятельный соискатель
Правоохранительной академии
Республики Узбекистан

Аннотация. Настоящая статья посвящена анализу международного опыта противодействия коррупции в проектах транспортной инфраструктуры и оценке эффективности реализованных мер. Международный опыт показывает, что эффективные механизмы противодействия коррупции – открытые тендерные системы, контроль со стороны гражданского общества, деятельность международных мониторинговых органов и механизмы ответственности – являются важным инструментом повышения эффективности и качества инфраструктурных проектов. Изучение такой практики и её внедрение в национальную правоприменительную систему является одной из актуальных задач для развивающихся государств, в том числе для Узбекистана. В исследовании с использованием описательного метода проанализированы нарушения, выявленные в 2022–2024 годах в тендерных процедурах дорожного строительства в Узбекистане, недостаточная прозрачность государственных закупок, факты злоупотребления финансовыми средствами, а также их экономические и социальные последствия. В качестве источников изучены международные практики и рекомендации Всемирного банка, Организации экономического сотрудничества и развития, Конвенции ООН против коррупции и Европейского банка реконструкции и развития. Особое внимание уделено преимуществам электронных систем закупок, таких как украинская ProZorro, корейская KONEPS (Korea ON-line E-Procurement System), турецкая EKAP (Electronic Public Procurement Platform), обеспечивающих открытость, цифровую интеграцию и подотчётность. Автор выдвигает конкретные предложения по повышению эффективности борьбы с коррупцией в Узбекистане путём гармонизации национального законодательства с международными стандартами, развития электронных тендерных платформ, усиления независимых мониторинговых органов и вовлечения институтов гражданского общества.

Ключевые слова: транспортная инфраструктура, противодействие коррупции, государственные закупки, международный опыт, электронная тендерная система, прозрачность



INTERNATIONAL EXPERIENCE IN EFFECTIVE ANTI-CORRUPTION MEASURES IN TRANSPORT INFRASTRUCTURE PROJECTS: ANALYSIS AND RECOMMENDATIONS

Mirzaeva Mohina Srojiddinovna,
Independent researcher at
the Academy of Law Enforcement
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article is devoted to the analysis of international experience in combating corruption in road transport infrastructure projects and effective measures taken. International experience shows that effective anti-corruption mechanisms – open tender systems, civil society oversight, international monitoring bodies, and accountability mechanisms – are important tools for increasing the effectiveness and quality of infrastructure projects. Studying and implementing such experience in national practice is one of the urgent tasks for developing countries such as Uzbekistan. Violations identified during tenders in the road construction sector of Uzbekistan in 2022–2024, lack of transparency in public procurement, cases of misuse of financial resources, and their economic and social consequences were considered using the method of descriptive analysis. Recommendations of the World Bank, the Organization for Economic Cooperation and Development, the UN Convention against Corruption, and the European Bank for Reconstruction and Development were studied from international experience. The advantages of such electronic procurement systems as “ProZorro” in Ukraine, KONEPS (Korea ON-line E-Procurement System) in South Korea, and EKAP (Electronic Public Procurement Platform) in Turkey in ensuring openness, digital integration, and accountability were also analyzed. The author put forward specific proposals for increasing the effectiveness of the fight against corruption by harmonizing national legislation with international standards, developing electronic tender platforms, strengthening independent monitoring bodies, and involving civil society institutions.*

Keywords: *transport infrastructure, anti-corruption, public procurement, international experience, electronic tender system, transparency*

Kirish

Bugungi global iqtisodiyotda infratuzilma, xususan, transport infratuzilmasi mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi, raqobatbardoshligi va mintaqaviy integratsiyasi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Avtomobil yo'llari, temir yo'llar, portlar va aeroportlar faqat tovarlar va xizmatlar harakatini ta'minlabgina qolmay, balki ijtimoiy tenglik va fuqarolarning turmush tarziga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Biroq bu kabi yirik investitsion loyihalar korrupsiya uchun juda katta xatar manbayidir. Bunga sabab infratuzilma sohasidagi kelishuvlarning katta mablag'larga bog'liqligi, tender

va nazorat jarayonlarining murakkabligi, shuningdek, hukumat bilan xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlar shaffofligining yetarli emasligidir.

Yo'l-transport infratuzilmasi sohasi davlat investitsiyalarining korrupsiyaga eng moyil sohalari qatoriga kiradi. *Transparency International* ta'kidlaganidek, "yo'l qurilishi sohasidagi korrupsiya qashshoqlikni kuchaytiradi, raqobatni cheklaydi va davlat mablag'larining samarasiz sarflanishiga olib keladi" [1]. Infratuzilma loyihalarining murakkab tabiati korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samarasizligi tufayli milliy infratuzilma xarajatlarning 30–50 foizi yo'qolishiga olib keladi [2]. Jahon banki *Integrity Vice Presidency* (INT) bo'limining 2020-yilda 49 ta shirkatni tenderlardan chetlatgani va 72 ta holatda kross-sanksiyalar qo'llanganini ma'lum qilgan. Bu infratuzilma loyihalarida korrupsiyaning ko'lami juda katta ekanini ko'rsatadi [3].

Transport infratuzilmasidagi korrupsiyaning oqibatlari juda og'ir bo'lishi mumkin – sifati past yo'llar, noto'g'ri sarflangan budjet, aholi uchun xavfli sharoitlar, loyihalarning kechiktirilishi va iqtisodiy samaradorlikning pasayishi shular jumlasidan. Masalan, 2024-yilda O'zbekistonda 17 mlrd so'mlik yo'l qurilishi va ta'mirlash ishlari past sifatda bajarilgani aniqlangani [4] shu sohadagi tizimli muammolarga ishora qiladi.

Ushbu ilmiy-amaliy muammoni o'rganish nafaqat korrupsiyani kamaytirish, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar – ochiq tender tizimlari, fuqarolik jamiyati nazorati, xalqaro monitoring organlari va javobgarlik mexanizmlari – infratuzilma loyihalarining samaradorligi va sifatini oshirishda muhim vositadir. Bunday tajribalarni o'rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Ushbu maqola tavsifiy tahlil (*descriptive analysis*) usulida yozildi. Xalqaro tajriba sifatida Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Ukraina (*"ProZorro"*), Janubiy Koreya (KONEPS – *Korea ON-line E-Procurement System*), Turkiya (EKAP – *Electronic Public Procurement Platform*) elektron xarid tizimlari tahlil qilindi.

O'zbekistondagi yo'l-qurilish tenderlari va davlat xaridlariga oid ochiq ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining hisobotlari birlamchi ma'lumotlar sifatida; xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, ekspert intervyulari va sohaviy tahlillar ikkilamchi ma'lumotlar sifatida o'rganildi.

Asosiy qism

Jahon banki – xalqaro miqyosdagi eng yirik moliyaviy institutlardan biri bo'lib, transport infratuzilmasi loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. Ushbu loyihalardagi korrupsiya xavfini kamaytirish va mablag'lar samaradorligini ta'minlash maqsadida Jahon banki tender va xarid jarayonlariga oid qat'iy shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini joriy etgan.

2016-yildan boshlab Jahon banki *"Procurement Framework"* [5] deb nomlangan xarid siyosatini qabul qilgan. *Procurement Framework* davlat xaridlarining barcha bosqichlarida huquqiy va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan. Tenderlar



ochiq va raqobatli o'tkazilishi, ishtirokchilar esa etika qoidalariga rioya qilishi shart. Manfaatlar to'qnashuvi va firibgarlik maxsus tartibda nazorat qilinadi.

Korrupsiyaga qarshi mexanizmlar qanday ishlashi hamda ularning samaradorligiga misol sifatida Jahon bankida *Integrity Vice Presidency* (INT) [6] nomli mustaqil tekshiruv organi faoliyatini keltirish mumkin.

Ushbu tuzilma:

- xarid va loyiha amaliyotidagi firibgarlik, manfaatlar to'qnashuvi, tamagirlik, moliyaviy manipulyatsiya va korrupsiya holatlarini tekshiradi;
- ochiq ma'lumotlar asosida tergov o'tkazadi;
- firma yoki shaxsni tenderlardan chetlatish (*debarment*) orqali javobgarlikka tortadi;
- hamkor xalqaro institutlar bilan kross-sanksiyalar (masalan, Osiyo taraqqiyot banki, YTTB) joriy etadi.

2020-yilda INT tomonidan 49 subyekt tenderlarda ishtirok etish huquqidan mahrum etilgan (*debarment*), yana 72 subyektga nisbatan kross-sanksiya qo'llangan. Bu loyihalarda huquqbuzarlikka yo'l qo'ygan tashkilotlarga nisbatan qat'iy munosabat belgilashdagi muhim holatdir.

Ushbu tashkilot faoliyati natijasida Keniya, Bangladesh, Nigeriya, Vyetnam kabi davlatlarda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi korrupsiya sxemalari fosh etilgan.

Shu kabi infratuzilmada samarali boshqaruv va monitoring misolida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning *I ACT (Infrastructure Anti-Corruption Toolbox)* tashabbusini ko'rsatishimiz mumkin. IHTT tomonidan ishlab chiqilgan *I ACT* [7] infratuzilma loyihalarida korrupsiyaga qarshi samarali choralarni joriy etish uchun mo'ljallangan amaliyotlar va instrumentlar to'plamidir. Ushbu tashabbus 2021-yilda taqdim etilgan bo'lib, u "loyiha rivojlanish siklining barcha bosqichlarida (tayyorgarlik, moliyalashtirish, bajarish, monitoring va baholash)"da yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan.

*I ACT*ning asosiy vazifalari – korrupsiya xavflarini erta aniqlash va baholash, loyiha boshlanishidan oldin xavf tahlillari orqali qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish hamda shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini joriy etishdan iborat. Yo'riqnomalarda xarid jarayonlarining ochiqqligi, ommaviy axborotga erishish, natijalarni onlayn kuzatish va hisobdorlik tizimlari nazarda tutilgan.

I ACT 30 dan ortiq instrumentlarni taklif etadi: haqiqiy egalik ma'lumotlarini oshkor etish, mahalliy va xalqaro audit organlari hamkorligi, shartnomalarning ochiq reyestri, jamoatchilik monitoringi, fuqarolik jamiyati va OAV ishtirokini rag'batlantirish. Ushbu chora-tadbirlar infratuzilma loyihalarida shaffoflik va ijtimoiy javobgarlikni kuchaytiradi.

Dunyoda Kolumbiya, Keniya, Indoneziya va Filippin kabi mamlakatlar *I ACT* tavsiyalarini amaliyotda qo'llab, korrupsiyaviy xavflarni sezilarli darajada kamaytirgan. Masalan, Keniyada *Open Contracting Data Standard* (OCDS) asosida tender natijalari real vaqtda e'lon qilinishi orqali korrupsiya holatlari 22 foizga qisqartirilgan [8].

Shu kabi *Transparency International* tomonidan joriy etilgan *Integrity Pact* mexanizmi – infratuzilma tenderlarida barcha ishtirokchilar tomonidan shartlarni korrupsiyasiz imzolashga asoslanadi. Unda mustaqil monitoringchi (ingl. *civil society monitor*) fuqarolik nazoratini amalga oshiradi va loyiha shaffofligini ta'minlaydi.

Integrity Pact mexanizmi 30 dan ortiq davlatda amaliyotga joriy etilgan. Masalan, Germaniyada transport loyihalarida mazkur tizim orqali millionlab yevro budget mablag'lari tejalgan [9]. *Integrity Pact* – davlat buyurtmachisi va tender ishtirokchilari o'rtasidagi yozma kelishuv bo'lib, unda korrupsiya va noqonuniy harakatlardan voz kechish, mustaqil kuzatuvchilar ishtirokida shaffof nazorat, shartnomani buzganlarga esa huquqiy va ma'muriy choralar belgilanishi ko'zda tutiladi.

Mazkur amaliyotni qonunchiligimizga joriy etishning quyidagi yo'llari mavjud deb hisoblaymiz. Avvalo, qonunchilik bazasini takomillashtirib,

- “Davlat xaridlari to'g'risida”gi va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunlarga *Integrity Pact* mexanizmini majburiy qoidalar sifatida kiritish lozim;

- mustaqil monitoring institutini rivojlantirib, tender jarayoniga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va xalqaro kuzatuvchilarni jalb etish kerak;

- ayrim yirik sohalar (qurilish, transport infratuzilmasi, sog'liqni saqlash)da *Integrity Pact* tajribasini sinov tariqasida joriy qilib ko'rish kerak.

Ma'muriy javobgarlik tizimiga keladigan bo'lsak, *Integrity Pact* talablariga rioya qilmagan kompaniyalarga davlat xaridlarida qatnashish huquqini ma'lum muddatga cheklash natija berishi mumkin.

Mazkur tizimning natijadorligini xorijiy mamlakatlar tajribasi misolida ko'radigan bo'lsak, Vengriyada M6 avtomagistrali qurilishi bo'yicha *Integrity Pact* ishlatilgani sababli dastlabki narxlar qayta ko'rib chiqilib, loyiha 700 000 yevro arzonroq narxda amalga oshirilgani aniqlangan. Latviya tajribasida esa tramvay liniyasi qurilishi jarayonida tenderda kelishilgan ishtirokchiga yo'naltirilgan harakatlar aniqlanib, tender qayta e'lon qilingan va adolatni ta'minlashga erishilgan [10].

Elektron davlat xaridlari platformalari korrupsiyani kamaytirishning texnologik yechimi sifatida muvaffaqiyatli deb topilgan.

Misol uchun, Ukrainadagi “*ProZorro*” 2015-yili ishga tushirilgan va 2016-yildan e'tiboran barcha davlat xaridlari uchun majburiy qilingan elektron tender tizimidir. Ukrainaning bu elektron tizimi 2020-yil oxiriga qadar jami 6 mlrd AQSh dollaridan ziyod mablag'ni tejagan. “*Kiiv School of Economics*” tahlillari jarayonida tenderlarda 5–10 foiz qo'shimcha tejamkorlik aniqlangan [11].

“*DoZorro*” platformasi orqali fuqarolik jamiyati va OAV tender jarayonini monitoring qilgan. 2020-yil dekabr oyiga kelib, “*Dozorro*” monitorlari 4,5 mlrd dollar qiymatidagi 33 348 dan ortiq tenderda qoidabuzarliklarni aniqlagan [12].

Yana bir mamlakat, Janubiy Koreyaning tajribasi ham o'ta namunalidir. Janubiy Koreyadagi KONEPS tizimi [13] – davlat xaridlarining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi alohida elektron platforma bo'lib, xaridni boshlashdan to'lovga qadar barcha jarayonlarni (tender e'lonlari, hujjat qabul qilish, shartnoma imzolash, to'lov va h.k.) qamrab olgan.



U. Mahendra va S. Afra tomonidan Koreya, Indoneziya va Hindistonda elektron davlat xaridlari (*e-procurement*) siyosatlarining amalga oshirilishi va ularning ma'muriy o'zgarishlar doirasidagi natijalari tahlil qilingan [14]. Maqolada Koreyaning KONEPS tizimi namuna sifatida tahlil qilingan. Unda 477 ta hujjat raqamlashtirilib, ish jarayoni 30 soatdan 2 soatgacha qisqartirilgani qayd etilgan. Ta'minotchilarga to'lovlar so'rovdan keyin 4 soat ichida amalga oshiriladi.

O. Belaxdar tomonidan o'tkazilgan ilmiy loyihada [15] barcha davlat xaridlari e'lonlari KONEPS orqali ommalashtirilgani, yetkazib beruvchilar bir marta ro'yxatdan o'tib, har qanday tenderda qatnashishlari mumkinligi bildirilgan. Tizim davlat va xususiy sektorning turli ma'lumot tizimlari bilan integratsiyalangan bo'lib, ma'lumot almashish yordamida faqat onlayn xizmatlar orqali ish yuritish imkoniyatini taqdim etadi.

J. Schopf [16] fikriga ko'ra, mazkur tizim har bir operatsiya haqida ma'lumotlarning real vaqtda ochiq e'lon qilinishi, hujjatli almashish va yuzma-yuz uchrashuvlarni kamaytirish orqali korrupsiyaga qarshi muhim vosita sifatida xizmat qilgan. KONEPSning ta'siri natijasida savdo tarmog'ida samaradorlik va shaffoflik sezilarli darajada yaxshilangan: ishtirokchilar miqdori, tenderlar soni, raqobat darajasi o'sgan, xarid jarayonlarida xarajatlar kamaygan.

2010-yilda KONEPSga "barmoq izi autentifikatsiyasi" (*Fingerprint Recognition e-Bidding*) tizimi joriy etilgan bo'lib, bu orqali har qanday firma faqat o'z nomidan, biometrik ma'lumotlar bilan tenderda qatnashishi mumkin bo'lgan. Ushbu choralar firmalarning identifikatsiyasini aniq va xavfsiz qilish maqsadida amalga oshirilgan.

Merve Chebi va Eren Ersoy [17] Turkiya misolida elektron tender tizimi (EKAP) orqali shaffoflik, tekshiruvchanlik, raqobat va samaradorlik qanday qo'llab-quvvatlanganini ko'rsatib bergan. EKAP elektron tizimi tender jarayonlarini raqamli muhitda boshqarib, barcha bosqichlarni qayd etadi va audit uchun qulay saqlaydi. Bu shaffoflik va jamoat nazoratini kuchaytiradi, ishtirokchilar sonini oshiradi hamda narxni kamaytirib, sifatni yaxshilashga xizmat qiladi.

J.R. Nikolas-Karlok va I. Luna-Pla [18] davlat xaridlarida soxta kompaniyalar (*shell companies*) orqali amalga oshiriladigan jinoiy sxemalarni tahlil qilgan. Mualliflar bunday kompaniyalardan foydalanish korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning asosiy vositasi ekanini ta'kidlab, benefitsiarlik egaligini ochiqlash, tender jarayonlarida shaffoflikni kuchaytirish, ortiqcha to'g'ridan to'g'ri kelishuvlarni cheklash, kompaniyalar o'rtasidagi bog'liqliklarni avtomatik aniqlovchi algoritmlarni joriy etish, offshor hududlarda ro'yxatdan o'tgan subyektlarga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda komplayens va antikorrupsiya standartlarini mustahkamlashni tavsiya etadi.

A. Aldana, A. Falkon-Kortes hamda H. Larralde [19] ilmiy ishida Meksikada davlat xaridlari jarayonida korrupsiyaviy xatti-harakatlar xavfi hukumat almashinuvidan oldin va keyin qanday o'zgargani tahlil qilingan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hukumat almashishi korrupsiyaga qarshi kurashishda avtomatik samara bermaydi. Agar tizim o'zidagi kamchiliklarni saqlab qolsa, yangi rahbariyat ham korrupsiyani bartaraf eta olmaydi.

Yuqoridagi mualliflar [20] tomonidan boshqa tadqiqotda mashina o'rganishi asosida Meksikadagi davlat xaridlari jarayonida korrupsiya xavfini aniqlash modeli ishlab chiqilgan. Model qisqa muddatda ko'p shartnoma yutuvchi yoki raqobatsiz tenderlarda ishtirok etuvchi kompaniyalarni aniqlab, nazorat organlariga erta ogohlantirish imkonini beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt va raqamli tahlil korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali mexanizm bo'lib, yirik infratuzilma loyihalarida ham qo'llanishi mumkin.

O'zbekistonda transport infratuzilmasi sohasida amalga oshirilayotgan yirik davlat loyihalari ko'pincha budjet mablag'larining katta hajmda sarflanishi bilan tavsiflanadi.

Bosh prokuratura monitoringi natijalariga [21] ko'ra, 2024-yil davomida qurilish sohasida 6 371 ta obyekt uchun tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarida umumiy qiymati 3,7 trln so'mlik asossiz va qimmatlashtirilgan mablag' aniqlanib, qisqartirilgan.

Yoki huquq-tartibot idoralari tomonidan Avtomobil yo'llari qo'mitasi tarkibidagi "O'zavtoyo'lbelgi" davlat unitar korxonasi faoliyatida noqonuniy holatlar aniqlangan – DUK mansabdor shaxslari 2021–2022-yillarda o'zlariga tanish bo'lgan 5 ta mahalliy MChJ bilan jami 9 mlrd 193 mln so'mlik 21 ta shartnoma tuzib, ulardan yo'l belgilarini yasash va chizishda foydalaniladigan mahsulotlarni erkin bozor narxlaridan qimmat narxlarda xarid qilib, 2 mlrd 701 mln so'm miqdoridagi budjet mablag'larini talon-toroj qilishgan [22].

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bir qator qonunlar qabul qilingan bo'lsa-da, ularning amaliyotdagi ijrosi yetarlicha samarali emas. Xususan, tender jarayonlari ma'lumotlarining to'liq ochiq emasligi – ma'lumotlar *e-xarid.uz* orqali joylashtirilsa-da, texnik shartnomalar, ishtirokchilarning to'liq ro'yxati va baholash mezonlari doimiy ravishda e'lon qilinmasligi kuzatiladi. Jamoatchilik nazorati past, tender natijalari bo'yicha mustaqil monitoring mexanizmi amalda ishlamaydi. Audit organlarining cheklangan salohiyati – Hisob palatasi tekshiruvlari ko'p hollarda loyiha yakunlangach o'tkaziladi, bu esa mablag'larning yo'qotilishiga tezkor ta'sir ko'rsatmaydi.

O'zbekistonda elektron tender platformasi mavjud bo'lsa-da, quyidagi islohotlar zarur:

- avvalo, barcha tender hujjatlarini, baholash mezonlarini va ishtirokchilarning takliflarini ochiq e'lon qilish;
- real vaqtda nazorat qilish funksiyasini joriy etish;
- jamoatchilik monitoringini yo'lga qo'yish (masalan, fuqarolik jamiyati tashkilotlarini tender jarayonidagi kuzatuvchi sifatida qo'shish).

IHTTning I ACT yo'riqnomalari O'zbekistonda ham tatbiq etilib, haqiqiy egalik bazasi, ochiq budjetlar, mustaqil audit va API (ochiq ma'lumotlar bilan avtomatik ishlash imkonini beruvchi texnik shakl) formatdagi ma'lumotlar orqali shaffoflik va korrupsiyaga qarshi samaradorlikni ta'minlashi mumkin.

IHTT va Jahon banki tavsiyalariga ko'ra, davlat xaridlari qonunchiligida oshkoralik va ochiqlik prinsiplarini kengroq tatbiq etish zarur, shu jumladan, barcha shartnomalarni davlat xaridlari reyestrda e'lon qilish, qurilish va ta'mirlash ishlari



bo'yicha texnik topshiriqlarni standartlashtirish, "Korrupsiyaga qarshi shartnoma" mexanizmlarini joriy etish zarur. Qonuniy ravishda *Integrity Pact* mexanizmlarini joriy qilish, ya'ni tenderda ishtirokchilar fuqarolik jamiyati va kuzatuvchi tashkilotlarga shartnomaviy cheklov bilan yopiq qilinmasligi kafolatini berish zarur.

Qonunchilikka o'zgartirishlar kiritib, tenderda raqobatbardoshlikni pasaytiradigan istisnolarni qisqartirish zarur. Tahlillarga ko'ra [23] 2024-yilda davlat xaridlarining 56,8 foizi (80,3 trln so'm) to'g'ridan to'g'ri tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirilgan.

Shuningdek, tender jarayonida ishtirok etuvchilarning haqiqiy egalik ma'lumotlarini (*beneficial ownership*) ochiq e'lon qilish majburiyligini kuchaytirish zarur. Bu qonunchilikka joriy qilingan, ammo amalda samarali tizim yo'q. Masalan, Buyuk Britaniyadagi "*People with Significant Control*" (PSC) reyestri kompaniyalarda ta'sir kuchiga ega shaxslarga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va 2016-yilda (*Small Business, Enterprise and Employment Act 2015* orqali) joriy qilingan [24].

Ukrainada ma'lumotlarni taqdim etmaganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Masalan, oxirgi benefitsiar to'g'risida ma'lumotlarni ro'yxatga oluvchi davlat organiga taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik yohud yuridik shaxsning oxirgi benefitsiari to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlash uchun axborotning mavjud emasligi taxminan 600 dan 1 850 AQSh dollari ekvivalentigacha jarima qo'llanishiga sabab bo'ladi.

Korrupsiyaga olib keluvchi yana bir omil loyihalarni nazorat qiluvchi organlar salohiyatining aniqlashtirilmaganligi va majburiy hujjatlashtirilmaganligidadir: aynan qaysi organlar qanday maqsadda tenderlarni nazorat qila olishini huquqiy ravishda aniqlashtirish kerak. Hozirgi kunda O'zbekistonda davlat xaridlari va tender jarayonlari asosan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun hamda Vazirlar Mahkamasining turli qarorlari orqali tartibga solinadi. Ammo bu hujjatlarda tender jarayonida qaysi nazoratchi organ qay bosqichda va qay yo'nalishda tekshiruv o'tkazishi mumkinligi aniq va batafsil belgilanmagan. Bu esa mas'uliyatning tarqoqligi va nazoratda bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Qonunga alohida modda qo'shish lozim, misol uchun, "Davlat xaridlari jarayoni ustidan nazorat" deb nomlangan bu moddada Hisob palatasi, Davlat moliya nazorati inspeksiyasi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Ichki audit bo'limlarining vazifalari aniq ko'rsatilishi kerak.

Har bir tekshiruvni majburiy hujjatlashtirish va elektron reyestr yuritish zarur, ya'ni qonunga va "Davlat xaridlari to'g'risidagi nizom"ga qo'shimcha kiritilib:

- barcha nazorat natijalari *e-Procurement* platformasida jamoatchilik uchun ochiq reyestrda kiritilishi shart;
- har bir tekshiruv bo'yicha "Nazorat akti" elektron shaklda yuklanishi va omma uchun ko'rinishi kerak (maxfiy ma'lumotlarsiz);
- tekshiruvchi organ o'tkazgan nazorat natijalariga yuridik kuchga ega bo'lgan QR-kodli elektron imzo qo'yilishi kerak;

– “Elektron davlat xaridlari platformasida” maxsus modul yaratilib, unda nazoratchi organlar onlayn ma’lumot almashishi, tekshiruvlarni ikki karra kamaytirishi mumkin;

– bu modulda tenderning barcha bosqichlari – e’lon qilishdan tortib shartnoma ijrosigacha – real vaqtda ko’rinib turishi kerak.

Bundan tashqari, yuqoridagi holatlarni yanada mustahkamlash uchun “Davlat xaridlarini o’tkazish va nazorat qilish metodikasi” to’g’risida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilishi lozim. Unda:

– qaysi holatda tekshiruv majburiyligi (masalan, tender summasi belgilangan limitdan oshsa);

– qaysi holatda favqulodda tekshiruv o’tkazilishi (masalan, manfaatlar to’qnashuvi yoki shaffoflik qoidalari buzilsa) lozimligi to’g’risidagi qoidalar o’z aksini topishi zarur.

Xulosa

Yo’l-transport infratuzilmasi loyihalarida korrupsiyaga qarshi samarali choralarni joriy etish masalasi O’zbekistonda davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba, xususan “ProZorro” (Ukraina), KONEPS (Janubiy Koreya) va EKAP (Turkiya) elektron tender platformalari shundan dalolat beradiki, tender jarayonlarini to’liq elektronlashtirish, barcha bosqichlarda ochiqlik va jamoatchilik nazoratini ta’minlash orqali korrupsiya xavfini sezilarli kamaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yo’l qurilishi va ta’mirlash sohasida korrupsiya xavfini kamaytirish uchun texnologik, huquqiy va institutsional islohotlar uyg’un ravishda amalga oshirilishi kerak. Bu nafaqat budjet mablag’laridan oqilona foydalanishni, balki O’zbekistonning xalqaro reytinglardagi mavqeyini oshirish va jamiyatning davlatga bo’lgan ishonchini mustahkamlashni ta’minlaydi.

REFERENCES

1. Transparency International. (2023, 17-aprel). Overview of corruption and anti-corruption in infrastructure development. U4 Anti-Corruption Helpdesk. https://knowledgehub.transparency.org/helpdesk/overview-of-corruption-and-anti-corruption-in-infrastructure-development?utm_source

2. OECD. Infrastructure Anti-Corruption. Available at: <https://www.oecd.org/en/about/projects/infrastructure-anti-corruption.html>

3. World Bank Group. Sanctions System Annual Report FY20. Washington, 2020. 62 p. Available at: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/861191602141633639/pdf/World-Bank-Group-Sanctions-System-Annual-Report-FY20.pdf>



4. 2024-yilda yo'l qurilish sohasida 17 milliard so'mlik sifatsiz ishlar bajarilganligi aniqlandi [It was revealed that 17 billion soums worth of poor-quality work was carried out in the road construction sector in 2024]. Available at: <https://daryo.uz/k/2025/03/10/2024-yilda-yol-qurilish-sohasida-17-milliard-somlik-sifatsiz-ishlar-bajarilganligi-aniqlandi>

5. World Bank. Project Procurement Overview. Available at: <https://www.worldbank.org/en/programs/project-procurement/overview>

6. World Bank Integrity Vice Presidency. Investigations. Available at: <https://www.worldbank.org/en/about/unit/integrity-vice-presidency/investigations>

7. OECD. Infrastructure Anti-Corruption. Available at: <https://www.oecd.org/en/about/projects/infrastructure-anti-corruption.html>

8. Open Government Partnership. Kenya Results Report 2020–2022. Available at: <https://www.opengovpartnership.org/documents/kenya-results-report-2020-2022/>

9. Transparency International. Integrity Pacts. Available at: <https://www.transparency.org/en/projects/integritypacts>

10. Transparency International. Integrity Pacts: A Blueprint for Safeguarding Public Investments. Available at: <https://www.transparency.org/en/news/integrity-pacts-blueprint-for-safeguarding-public-investments-sustainable-development>

11. KSE. The Prozorro Impact: What Real Savings an Electronic System Delivers. Policy Brief. Available at: <https://kse.ua/about-the-school/news/the-prozorro-impact-what-real-savings-an-electronic-system-delivers-policy-brief/>

12. Open Contracting Partnership. Impact: Ukraine. Available at: <https://www.open-contracting.org/impact-stories/impact-ukraine/>

13. Public Procurement Service of Korea. E-Procurement System. Available at: <https://www.pps.go.kr/eng/content.do?key=00775>

14. Mahendra W., Afra S.A. E-Procurement and Administrative Reform: Cases of South Korea, Indonesia, and India. *Jurnal Ilmu Administrasi Negara (JUAN)*, 2023, vol. 11, no. 2, pp. 101–110.

15. Belahdar O. E-Governance in South Korea (Framed by Prof. Mihai Alexandru Botezatu). *ResearchGate*, 2021. Available at: https://www.researchgate.net/publication/354544347_E-Governance_in_South_Korea

16. Schopf J.C. The Governance Effects of Korea's Leading E-Government Websites. *Journal of Cases on Information Technology*, 2017, vol. 19, no. 2, pp. 1–16. DOI: 10.4018/JCIT.2017040101.

17. Çebi M., Ersoy E.C. Transparency in Public Procurement and the Effects of Transition to Electronic Procurement System. *Kılınç Law & Consulting, Administrative Cases*, 2024.

18. Nicolás-Carlock J.R., Luna-Pla I. Organized crime behavior of shell-company networks in procurement: prevention insights for policy and reform. *Trends in Organized Crime*, 2024, vol. 27, pp. 412–428. DOI: 10.1007/s12117-023-09499-w.

19. Falcón-Cortés A., Aldana A., Larralde H. Practices of public procurement and the risk of corrupt behavior before and after the government transition in México. 2021.

20. Aldana A., Falcón-Cortés A., Larralde H. A machine learning model to identify corruption in México's public procurement contracts. *Preprint*, 2022. DOI: 10.48550/arXiv.2211.01478

21. Bosh prokuratura: Qurilish sohasidagi qonunbuzarlik holatlari bartaraf etilmoqda [Prosecutor General's Office: Illegal construction violations are being eliminated]. Available at: https://uza.uz/uz/posts/bosh-prokuratura-qurilish-sohasidagi-qonunbuzarlik-holatlari-bartaraf-etilmoqda_677867

22. Qurilishdagi qonunbuzarliklar haqida [About construction violations]. Available at: <https://uznews.uz/uz/posts/62736>

23. Yo'l qurilishidagi korrupsiya bilan bog'liq holatlar [Cases of corruption in road construction]. Available at: <https://kun.uz/kr/09783186>

24. Department for Business, Energy and Industrial Strategy. *Review of the implementation of the PSC Register*. London, 2019.



Kelib tushgan / Получено / Received: 25.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 20.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.3./MID05481

UDC: 343.85(045)(575.1)

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI, JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI SAMARALI KURASHISH USULLARI

Ismoilov Zafarbek Kamol o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-4689-1543

e-mail: zafarbekismoilov2304@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish masalalari yoritilgan. Mavzuning dolzarbligi jinoyatlarning shakli va tusining murakkablashib borayotgani, ularning oldini olish uchun zamonaviy, tizimli va barqaror yondashuvlar talab qilinayotgani bilan belgilanadi. Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilik, davlat siyosati, ijtimoiy institutlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, xalqaro tajriba va ularni O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar, qonunchilik hujjatlari, ijtimoiy so'rovlar natijalari va grafiklar asosida xulosalar chiqarilgan. Bir qator huquqshunos olimlarning maqolalari va tajribalari o'rganilib, O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi uchun xizmat qiluvchi, eng samarali metodlarni tatbiq qilish orqali jinoyatchilikning oldini olish uchun keskin harakatlarni amalga oshirish kerakligi haqida fikr yuritilgan. O'zbekistonda amalda bo'lgan qonunlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar bildirilgan. Jinoyatchilik darajasi haqida o'rganish ishlari olib borilgan va ularning natijasi batafsil yoritilgan. Xulosa qismida jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun zarur taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, profilaktika, huquqbuzarlik, mahalla, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, qonunchilik, xavfsizlik, jamiyat

ПРОФИЛАКТИКА ПРАВОНАРУШЕНИЙ, ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ БОРЬБЫ С НЕЙ

Исмоилов Зафарбек Камол угли,

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы предупреждения преступности и эффективной борьбы с ней в Республике Узбекистан. Актуальность темы определяется усложнением форм и проявлений преступлений, что требует современных, системных и устойчивых подходов к их предотвращению. В работе проанализированы законодательство о профилактике правонарушений, государственная политика, деятельность социальных институтов и правоохранительных органов, а также международный опыт и возможности его адаптации к условиям Узбекистана. В исследовании использованы статистические данные, нормативно-правовые акты, результаты социологических опросов и графические материалы, на основе которых сформулированы выводы. Изучены труды и опыт ряда учёных-юристов, выработаны предложения о необходимости применения наиболее эффективных методов профилактики правонарушений, соответствующих национальной специфике, а также предприятия решительных мер по предупреждению преступности. Рассмотрены предложения по внесению изменений в действующее законодательство. Проведены исследования уровня преступности и представлены их результаты. В заключении даны необходимые рекомендации и предложения, направленные на повышение эффективности борьбы с преступностью.

Ключевые слова: преступность, профилактика, правонарушение, махалля, правоохранительные органы, законодательство, безопасность, общество

PREVENTION OF OFFENSES, CRIME PREVENTION, AND EFFECTIVE METHODS OF COMBATING THEM

Ismoilov Zafarbek Kamol ugli,
Independent researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. This article discusses the issues of preventing and effectively combating crime in the Republic of Uzbekistan. The relevance of the topic is determined by the increasing complexity of the forms and nature of crimes and the need for modern, systematic, and sustainable approaches to their prevention. The article analyzes legislation on crime prevention, state policy, the activities of social institutions and law enforcement agencies, international experience, and the possibilities of their application in the conditions of Uzbekistan. The study draws conclusions based on statistical data, legislative acts, the results of social surveys, and graphs. The articles and experiences of a number of legal scholars were studied, and the need to take decisive actions to prevent crime by applying the most effective methods suitable for Uzbekistan and serving the prevention of offenses was considered. Proposals for amendments to existing laws in Uzbekistan were discussed. Research and studies have been conducted on the level of crime, and their results are described in detail. The conclusion provides the necessary proposals and recommendations for increasing the effectiveness of the fight against crime.



Keywords: *crime, prevention, offense, mahalla (community), law enforcement agencies, legislation, security, society*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, jinoyatlar soni va ko'rinishlari murakkablashmoqda, jinoyatlarning yoshlar orasida ko'payishi va yangi texnologiyalar yordamida sodir etilishi huquq-tartibot organlari oldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Maqolaning maqsadi jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi tizimni o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash, xalqaro tajriba bilan taqqoslash va samarali takliflarni ishlab chiqishdir.

Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi [1]. Jinoyatchilik – shaxsiy manfaatlarni ko'zlab yoki ijtimoiy norozilik natijasida yuzaga keladigan, mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimga qarshi qaratilgan faoliyatdir. Bunday holatlar jamiyatda huquqiy, moddiy, ma'naviy va iqtisodiy muhitga jiddiy zarar yetkazadi. Ayniqsa, jinoyatlarning yoshlar orasida ko'payishi, ularning yangi texnologiyalar yordamida sodir etilayotgani bu sohada keskin chora-tadbirlar ko'rishni talab etadi. Jinoyat sodir qilinganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek, u bilan bog'liq barcha holatlarni aniqlashi shart [1]. Aytish kerakki, har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan islohotlar, xususan, "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslanib olib borilayotgan siyosat jinoyatchilikning oldini olishda har bir fuqaroning ishtirokini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda innovatsion yondashuvlar, ilg'or tajriba va tizimli nazoratni joriy etish orqali ijobiy natijaga erishish imkonini bermogda.

Asosiy qism

Maqolada kriminologik tahlil, tizimli yondashuv, statistik usul, huquqiy tahlil, sotsiologik usul, kriminologik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Jinoyatchilik kriminologik hodisa bo'libgina qolmay, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va siyosiy jihatdan ham murakkab muammo hisoblanadi. Jinoyatlarning sabablarini o'rganishda klassik va zamonaviy kriminologik yondashuvlar qo'llanadi. Klassik yondashuv jinoyatni shaxsning ongli tanlovi sifatida qarasa, zamonaviy yondashuvlar jinoyatchilikning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillariga urg'u beradi. Shu bilan birga, jinoyatga moyil shaxslar bilan tadbirlar tashkil etish ham jinoyatchilikni kamaytirish uchun yordam berishi mumkin. Masalan, 2006–2011-yillarda Jizzax viloyati prokurori sifatida faoliyat yuritgan P. Bobojonov o'z tadqiqot ishlarida jinoyatchilikni

kamaytirish uchun faqat jazoni kuchaytirish emas, balki jinoyatni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish muhimligini ta'kidlab o'tgan [3].

IIV akademiyasining ilmiy-amaliy eksperti A.A. Turayev esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash zarurligini ko'rsatib o'tgan [4]. Ne'matov Azizbek G'olibjon o'g'lining "Theoretical and legal analysis of causes of the crime and conditions conducive to its committing" deb nomlangan maqolasida mahalla va fuqarolik institutlari o'rtasida hamda ijtimoiy xodimlar va ta'lim muassasalarida profilaktik ishlarni amalga oshirish, buni qonun bilan tasdiqlash kerakligi aytib o'tilgan [5]. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi tadqiqotchisi O'. Sayfullayev "O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish: muammolar va yechimlar" deb nomlangan maqolasida jinoyatga sabab bo'ladigan iqtisodiy-ijtimoiy omillar haqida so'z yuritgan. Ishsizlik, kambag'allik, migratsiya oqibatlari, shu bilan birga, HMQO faoliyatidagi kamchiliklarni ham tahlil qilgan. Masalan, korrupsiya, professional tayyorgarlikning yetishmasligi [6]. Shuningdek, Samarqand davlat universitetining jinoyat huquqi kafedrasida yordamchi o'qituvchisi D.R. Uraqovning "Crime prevention in modern Uzbekistan" nomli maqolasida O'zbekistonda huquqbuzarlikka qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan nazariyalar yoritilgan, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashishning 9 ta usuli ko'rsatilgan. Ulardan biri "Sociological Methods", ya'ni sotsiologik metodning asosini huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan so'rovnoma va suhbatlar o'tkazish, ta'lim muassasalarida yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rishga ruxsat berish va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan choralarni tahlil qilish tashkil etadi [7]. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi tinglovchisi Mahmudjonov Qilichbekning "Modern technical devices in crime detection" nomli maqolasida zamonaviy texnika va texnologiyalarning huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olishda texnika va texnologiyalarning o'rni hamda foydalari muhokama qilingan. Masalan, biometrik identifikatsiyalash ya'ni barmoq izini skanerlash, yuz ko'rinishi, tanib olish texnologiyalari orqali gumonlanuvchilar orasidan aynan aybdorni ajratib olish mumkinligi keltirilgan [8]. Shuningdek, O'zbekiston Milliy gvardiyasining mintaqaviy xavfsizlik boshqarmasi katta inspektori S.Q. Amirqulovning "Principles of continuous crime prevention and elimination today" nomli maqolasida jinoyatchilikka qarshi kurashishning bir qancha strategiyalari tavsiflangan.

Jumladan huquqbuzarlikka qarshi doimiy choralar jamoat hamda huquqiy nazorat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilgan holda olib borilishi orqali yaxshi natijalarga erishish mumkinligi aytib o'tilgan [9]. Yapon huquqshunosi A. Suzukining "Routine activities and customers fraud victimization: findings from social survey in Chiba Prefecture, Japan" deb nomlangan maqolasida fuqarolarni aldashga qarshi profilaktika va ijtimoiy xavfsizlik strategiyalari ishlab chiqilgan. Ularda aynan hukumatning maxsus organi tomonidan ishlab chiqilgan dastur asosida profilaktik ta'lim jarayonida misollar bilan tushuntirish shartligi keltirilgan. Jamiyatdagi o'g'rilik va firibgarlik jinoyatlarini kamaytirishga nisbatan psixologik yondashuv metodi haqida so'z yuritilgan, unga ko'ra, notanish insonlarga o'z ma'lumotlarini bermaslik,



hujjatlashtirilmagan ma'lumotlarga ishonmaslik kabi ta'limotlari mavjud. Suzukining aytishicha, kundalik onlayn faoliyatning yuqori bo'lishi firibgarlikka uchrash xavfini oshiradi, ayniqsa, fuqarolarning o'zlarini himoyasiz deb hisoblamasligi ularni yanada zaiflashtiradi [10]. Shuningdek, Braziliya Yuqori darajali politsiya tayyorlash oliy o'quv muassasasi o'qituvchisi Isangelo Sennaning "Measuring the effects of crime prevention through environmental design (CPTED) on fear of crime in public spaces" nomli maqolasida asosiy g'oya jinoyatchilikning oldini olishda muhitning ta'siri konsepsiyasining samaradorligi tahlil qilinadi. Ya'ni jamoat joylarida fizik holatni o'zgartirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkinmi degan savolga javob berilgan. So'rovnoma o'tkazilgan va jamoatchilikdan ma'lumotlar to'plangan. Londondagi metro stansiyalarida ushbu so'rovnomanini o'tkazishgan. Natijada daraxtlar ko'p va zich, qorong'i joylarda insonda jinoyatchilik qo'rquvi vujudga kelishi mumkin, degan fikrga kelishgan. Buning oldini olish uchun ko'chalarga yoritish chiroqlarini joylashtirish va shubhali harakatlarni kuzatish uchun ochiq maydonlar yaratish g'oyasi ilgari surilgan [11].

London universitetida "future crimes", ya'ni kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatlar bo'yicha professor Shane D. Jonson o'zining "Identifying and preventing future forms of crimes using situational crime prevention" nomli tadqiqot ishida onlayn firibgarlik, SI yordamida yasalgan jinoyatlardan qanday himoyalalanish to'g'risida tavsiyalar berilgan. Mazkur tavsiyalardan aynan O'zbekistonga mos keladigani kiberjinoyatlar va SI bilan tayyorlangan jinoyatlardan himoyalalanish uchun texnologik verifikatsiya vositalaridan foydalanish. Masalan, deepfake – avtomatik audit tizimlari orqali videolarni yoki fayllarni tekshirish. Yuqorida aytib o'tilgan yo'llar kiberjinoyatlardan va insonlarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsiz saqlanishi uchun xizmat qiladi [12]. B. Shodmonov "Mahalla institutining jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi o'rni" nomli maqolasida mahalla asrlar davomida shakllangan tarbiya va xavfsizlik maskani ekanligi, agar mahallada jinoyatchilikka qarshi kurashish kuchaytirilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin, deya fikr yuritgan. "Obod va xavfsiz mahalla" dasturi orqali jinoyatchilik darajasini kamaytirish maqsadi ko'zlanadi [13]. B. Rasulov "Kriminologik tahlil va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi" deb nomlangan maqolasida jinoyatning sabablari, shart-sharoitlari va omillarini ilmiy yondashuv yo'li bilan o'rganadi. Uning tahlili jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan strategiyani aniqlashga yordam beradi [14]. Sh. Rashidov "Huquqiy tahlil metodologiyasi" nomli maqolasida 4 ta metodologik yondashuvni keltirgan: mazmuniy yondashuv, struktural yondashuv, tarixiy yondashuv, qiyosiy yondashuv. Mazkur yondashuvlar orqali huquqning mazmuni mohiyatini tezda aniqlash, normalarni tez anglash va ularga amal qilish, uslubiyatini to'g'ri tanlashga yordam berishi keltirilgan [15].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilik murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy hodisa sifatida turli yondashuvlar orqali o'rganilishi zarur. Klassik kriminologik qarash jinoyatni shaxsning ongli tanlovi sifatida baholasa, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar jinoyatchilikning sabablari ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

O'zbek olimlari va tadqiqotchilarining ishlari jinoyatchilikka qarshi kurashishda turli metodlarni ko'rsatib beradi. Masalan, P. Bobojonov jazoni kuchaytirish bilan bir qatorda jinoyatga olib keluvchi omillarni bartaraf etish zarurligini urg'ulagan. A.A. Turayev huquqni muhofaza qiluvchi organlarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash lozimligini ta'kidlagan. A.G'. Ne'matov esa mahalla va fuqarolik institutlarining profilaktikadagi o'rniga urg'u beradi. O. Sayfullayev jinoyatning iqtisodiy-ijtimoiy sabablarini ochib bergan bo'lsa, D.R. Uraqov sotsiologik metodlar orqali aholi orasida tushuntirish va so'rovnomalar o'tkazish samarali usullardan biri ekanini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotchilar ham jinoyatchilik profilaktikasi bo'yicha muhim qarashlarni ilgari suradi. Masalan, yaponiyalik A. Suzuki psixologik yondashuvni fuqarolarni firibgarlikka qarshi himoya qilishda ta'lim va ongni oshirishni muhim deb biladi. Braziliyalik I. Senna esa muhitni o'zgartirish (CPTED) orqali jinoyatning oldini olish mumkinligini asoslagan. London universiteti tadqiqotchisi Sh. Jonson esa kiberjinoyatlar va yangi texnologiyalar bilan bog'liq xavflarga qarshi kurashishda verifikatsiya va texnologik audit vositalarini taklif qiladi. Shuningdek, B. Shodmonov mahalla institutining tarixiy asosda jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi samara-dorligini ko'rsatadi, Sh. Rashidov esa metodologik yondashuvlarning ilmiy asosini ishlab chiqqan.

Mazkur tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat jazoga tayanmasdan, balki profilaktika, ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kamaytirish, texnologiyalardan foydalanish va mahalla kabi an'anaviy institutlarni kuchaytirish orqali kompleks yondashuv asosida olib borilishi zarur. Xususan, texnologik yo'nalishda biometrik tizimlar, kameralar va kiberjinoyatlarga qarshi texnologik vositalarni keng joriy etish; ijtimoiy yo'nalishda yoshlar orasida huquqiy ongni oshirish, mahalla va ta'lim muassasalari orqali profilaktik ishlarni tizimli olib borish; ilmiy yo'nalishda maxsus ilmiy-tahliliy markazlar orqali jinoyatchilik sabablarini muntazam o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish; psixologik yo'nalishda jinoyatga moyil shaxslar bilan individual ishlash, psixologik yordam va reabilitatsiya dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu asosga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi samarali kurashishning kaliti kompleks yondashuv va xalqaro hamda mahalliy ilmiy tajribalarni uyg'unlashtirishdir.

So'nggi yillarda jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ko'plab normativ hujjatlar qabul qilindi: "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari bu sohadagi huquqiy asosni mustahkamladi. Jinoyatchilikning oldini olishda mahalla raislari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari, ijtimoiy xodimlar, hokim yordamchisi va profilaktika inspektorlari birgalikda harakat qilmoqda. "Mahallabay ishlash tizimi" aynan shu maqsadlarda joriy qilingan.

Stat.uz ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi 3 yil ichida jinoyatlarning umumiy soni ko'payib bormoqda. Bu esa profilaktik ishlarning soni va sifatini yana ham ko'paytirish kerakligini anglatadi. Masalan, 2023-yilda o'tgan yilga nisbatan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar soni 9 foizga ko'paygan.

IIV tizimida jinoyatlarni monitoring qilish, xavfli hududlarni aniqlash, jinoyatchilik xaritalarini tuzish kabi zamonaviy tizimlar joriy qilinmoqda. Bu esa tezkorlik va


samaradorlikni oshiradi. Jinoyatchilik xaritasi mamlakatimizda uch xil rangdan iborat, qizil, sariq va yashil. Qizil hudud jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan xavfli hudud hisoblanadi. Sariq hudud jinoyatchilik darajasi o'rtacha bo'lgan va o'rtacha xavfli hudud hisoblanadi. Yashil hudud esa jinoyatchilik darajasi va soni bo'yicha eng quyi turuvchi hudud hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda jinoyatlarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Blogerlar, jurnalistlar va fuqarolar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish tadbirlari kengaymoqda.



1-rasm. O'zbekistondagi jinoyatchilik xaritasi (2024)

Жиноятлар даражаси ҳудудлар кесимида
(январь-декабрь, 10 минг аҳолига нисбатан, жиноятчилик ҳолатлари)



2-rasm. O'zbekistonda jinoyatchilikning oxirgi 2 yil kesimida ortishi
va kamayib borish dinamikasi*

* Manba: stat.uz

Jadval

2020-yildan buyon respublika hududida bo'lgan jinoyatchilik tahlili*

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	62081	111082	105215	104096	132298
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2092	3306	3367	3554	4673
Andijon viloyati	4618	6930	7231	7487	8743
Buxoro viloyati	3570	5267	5175	5339	7489
Jizzax viloyati	1775	2731	2865	3192	4288
Qashqadaryo viloyati	3508	5813	5810	5928	7841
Navoiy viloyati	1943	2998	2965	3132	4120
Namangan viloyati	4235	7054	7212	7742	8204
Samarqand viloyati	5307	7505	7727	7843	9402
Surxondaryo viloyati	3176	5041	4995	5102	8001
Sirdaryo viloyati	1681	3138	3405	3387	3295
Toshkent viloyati	7261	11957	12259	12430	14702
Farg'ona viloyati	10952	19903	15182	13025	14289
Xorazm viloyati	2698	2929	2905	3023	4339
Toshkent shahri	8657	25543	22791	21728	32106

* Manba: stat.uz

Ko'rinadiki, 2019–2023-yillarda voyaga yetmaganlar orasida jinoyatlar soni 4,4 barobarga, voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatlar esa 4,4 barobarga ko'paygan. Bu natijalar profilaktika ishlari yetarli emasligini ko'rsatadi. Hududlar bo'yicha Toshkent shahri jinoyatlar soni bo'yicha birinchi o'rinda (32 106 ta), eng past ko'rsatkich esa Sirdaryoda qayd etilgan.

Texnologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan, jinoyatchilik xaritalari, xavfli hududlarni aniqlash tizimlari joriy qilingan, lekin ularning samaradorligi hali to'liq ta'minlanmagan.

O'zbekiston tajribasi jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'plab ijobiy jihatlarga ega. Ammo mavjud tizimda ayrim kamchiliklar ham mavjud. Aholining ayrim qatlamlarida huquqiy madaniyat yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa jinoyatga moyillikni oshiradi. Bunday jinoyatlarning oldini olish uchun Prezident farmoni bilan mahallalarga va turli aholi qatlamlari orasida maxsus tushuntirish ishlarini olib boruvchi mutaxassislar va huquqiy bilim yurtlari o'qituvchilari respublika bo'ylab taqsimlangan va tushuntirish ishlari olib borilgan.

Islahotlarga qaramay, yoshlar orasida bezorilik, o'g'rilik, giyohvandlik kabi jinoyatlar hali ham kuzatilmoqda. Ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik va iqtisodiy



qiyinchiliklar ayrim hollarda jinoyatga sabab bo'lmoqda. Mahallalarda ijtimoiy xodimlar va profilaktika inspektorlarining moddiy-texnik bazasi yetarli emas.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, turli aholi qatlamlari orasida huquqiy targ'ibotlarni olib borishni yanada ko'paytirish va maktablarda har dushanba o'tilishi majburiy bo'lgan, huquqiy tarbiya fanini darslik sifatida joriy qilish;

- mahalla va ichki ishlar organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish. Shuningdek, aholining huquqiy ongini oshirishga qaratilgan turli tadbirlar tashkil etish. Mahalla inspektorlarining aholi orasida, ayniqsa, yoshlar orasida tushuntirishlar olib borayotganini tekshirish va nazorat qilish;

- aholi bandligini ta'minlash va ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha qo'shimcha davlat dasturlarini ishlab chiqish. Ayniqsa, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ularni ish bilan ta'minlash bo'yicha respublika miqyosida maxsus ishchi guruh ajratish;

- jinoyatni sodir etgan, lekin ijtimoiy xavfi uncha katta bo'lmagan shaxslar bilan ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlarini yo'lga qo'yish choralari yanada isloh qilish va ularga mos ish bilan band qilish choralari ko'rish.

Shu bilan birga, O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlarni rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyoslaydigan bo'lsak, masalan, AQShda politsiya va jamoatchilik o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatilgan, barcha ko'chalar yoritilgan va kameralashtirilgan. Yoshlar uchun profilaktik dasturlar ishlab chiqilgan. Aholi ko'p yashaydigan hududlarda "gunshot detection systems" qurol ovozi aniqalaydigan qurilmalar o'rnatilgan va bu qurilmalar avtomatik ravishda politsiya boshqarmasiga xabar yuboradi. Hukumat jinoyatchilik avj olgan joylarga ko'plab politsiya xodimlarini yuboradi, aynan ushbu chora, Urban instituti tadqiqotlariga qaraganda, AQShda jinoyatchilikni 5–10 foizga kamaytirgan.

Germaniyada esa aynan jinoyatchilikning oldini olish uchun Jinoyatchilik profilaktikasi milliy markazi tashkil qilingan va unda sohadagi turli mutaxassislar birlashtirilgan. Ular esa aholi orasida qanday jinoyatlar avj olayotgani va ularga qarshi qanday kurashish mumkinligi haqida dasturlar ustida ishlaydilar. Maktablarda turli tushuntirish ishlari olib boriladi. Internetda kiberjinoyatga qarshi turli platformalar faoliyat yuritadi. Masalan, jugendschutz.net kabi.

Mazkur davlatlarning ba'zi tajribalarini O'zbekistonda qo'llash mumkin. Masalan, AQShdan barcha ko'chalarni yoritish tizimlari bilan ta'minlash va kameralashtirish tajribasini olsa bo'ladi. Germaniyadan esa jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan maxsus ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tashkil qilinishi tajribasini o'zlashtirsa bo'ladi va bu markazning faoliyatini HMQO bilan birgalikda tashkil qilish kerak. Shu bilan birgalikda, ko'plab olimlarning huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun ishlab chiqqan metodlari bilan tanishib chiqdik, aynan o'sha metodlarni O'zbekistonda ham qo'llash ham jinoyatchilikni kamaytirishga katta hissa qo'shadi.

Maqolada ilmiy manbalarga tayangan holda jinoyatchilikni kamaytirishda kompleks yondashuv zarurligi asoslab berildi. Fikrimizcha, O'zbekistonda samarali profilaktika tizimi yaratish uchun xalqaro tajriba (AQSh, Germaniya), sud amaliyoti, mahalla institutlari va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish talab etiladi. Faqat jazoga tayanish o'rniga profilaktika – tarbiya – bandlik – ijtimoiy yordam – texnologik nazorat zanjiri shakllantirilsa, jinoyatchilik darajasini barqaror kamaytirish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha tizimli yondashuv shakllanmoqda. Bu borada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, mahalla va fuqarolik jamiyatining faolligi ijobiy natija bermoqda. Ammo mavjud muammolarni to'liq bartaraf etish uchun jinoyatchilikka qarshi kurashish yo'llarini doimiy takomillashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish va aholining huquqiy ongini oshirish zarur.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish jamiyatning barcha qatlamlari birgalikda harakat qiladigan uzluksiz jarayondir. Faqat jazolash emas, balki tarbiya, ma'rifat, ijtimoiy yordam va imkoniyat yaratish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin. Har bir fuqaroning huquqiy bilimiga ega bo'lishi, ijtimoiy adolatning qaror topishi va davlat organlarining ochiqqligi bu borada muvaffaqiyatni kafolatlaydi. Jinoyatchilarni jazolash va ungacha bo'lgan bosqichlar, ya'ni ish qo'zg'atilgandan boshlab to sud hukmi chiqqunga qadar yo'lni bosib o'tish, murakkab tergov jarayonlari amalga oshirilishidan va shaxsni jazolashdan ko'ra aynan o'sha jinoyatchilikning oldini olish rivojlanayotgan davlatning aynan ushbu tizimdagi oldinga tashlagan katta qadami hisoblanadi. Shuningdek, chet el huquqshunos olimlarining fikrlariga va rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda O'zbekistonda huquqbuzarliklarning oldini olish uchun jadal islohotlar qilish, shu bilan birga, aholining huquqiy ongini rivojlantirish uchun davlat tomonidan sarmoyalar ajratish orqali jinoyatchilik sonini keskin kamaytirish uchun jiddiy harakat qilish kerak.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2023, pp. 5–7.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, O'zbekiston Publ., 2023.
3. Bobojonov R. Jinoyat va jinoyatchilik: nazariya va amaliyot [Crime and Criminality: Theory and Practice]. Tashkent, Tashkent State University of Law Publ., 2020, no. 3, pp. 6–12.
4. To'rayev A.A. Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati [The Activities of Law Enforcement Agencies in Combating Crime]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs, 2021, vol. 2-3, pp. 7–24.



5. Nematov A. [Theoretical and Legal Analysis of the Causes of Crime and the Conditions Conducive to its Committing]. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 2021, no. 11, pp. 49–52.
6. Sayfullayev O'. O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish: muammolar va yechimlar [Combating Crime in Uzbekistan: Problems and Solutions]. *Rights and Duties*, no. 1, pp. 37–42.
7. Urakov D.R. Crime Prevention in Modern Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies*, 2024, pp. 4–8.
8. Makhmudjonov Q. Modern Technical Devices in Crime Detection. *World Bulletin of Management and Law*, 2024, no. 37, pp. 17–20.
9. Amirqulov S. Principles of Continuous Crime Prevention and Elimination Today. *Web of Scientist*, 2024, vol. 5, no. 4, pp. 143–146.
10. Suzuki A. Routine activities and consumer fraud victimization: findings from a social survey in Chiba Prefecture, Japan. *Crime Prevention & Community Safety*, 2024, vol. 26(5), pp. 373–384.
11. Isangelo S. Measuring the effects of Crime Prevention Through Environmental Design (CPTED) on fear of crime in public spaces. *Crime Prevention & Community Safety*, 2025, vol. 27(1), pp. 15–21.
12. Shane D.J. Identifying and preventing future forms of crimes using situational crime prevention. *Web of Scientist*, 2024, no. 37, pp. 515–534.
13. Shodmonov B. Mahalla institutining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi o'рни [The Role of the Mahalla Institution in Combating Crime]. *Social Sciences*, 2022, no. 2, pp. 45–49.
14. Rasulov B.B. Kriminologik tahlil va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi [Criminological Analysis and Crime Prevention System]. *Rights and Duties*, 2020, vol. 3, pp. 4–9.
15. Rashidov Sh. Huquqiy tahlilning metodologiyasi [Methodology of Legal Analysis]. *Journal of Legal Sciences*, 2021, vol. 2, pp. 12–14.



KRIMINOLOGIYA

VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2025-yil 3-son